



***...Nafsning kelajagi — zulmdir, zulmning kelajagi esa — xorlikdir. Biz ana shu oddiy haqiqatni bayon qilmoqchimiz. Badan pokligi badanga, ruh pokligi ruhga hayot bag'ishlar...***

### ***Bismillahir Rohmanir Rohiym***

*«...Ana o'shalar hidoyatga zalolatni sotib olgandirlar. Va tijratlari foyda keltirmadi hamda hidoyat topganlardan bo'lmadilar. Ular misoli bir o't (mash'ala) yoquvchiga o'xshaydilar. Olov endi atrofini yoritganida Olloh yorug'likni ketkazib, ularni hech narsani ko'rmaydigan holda zulmatlarda qoldiradi. Ular kar, soqov va ko'rdirlar. Bas, ular hidoyatga qaytmaslar...»*

(Baqara surasi, 16—18-oyatlar)

### **MUALLIFDAN**

Butun olamlar Parvardigori Ollohga behad hamd bo'lsin va payg'ambarlarning oxirgisi — sayyidimiz Muhammad alayhissalomga salovot va salomlar bo'lsin.

Albatta, hamd Ollohga xosdir. Biz unga hamd aytamiz, Undan yordam so'raymiz. Va Ollohdan nafsimizning yomonliklaridan panoh berishini so'rab iltijo qilurmiz. Kimni Olloh hidoyat qilsa, uni adashtiruvchi yo'q. Kimni Olloh adashtirsa, uni hidoyat qilguvchi yo'qdur.

Eng ulug' so'zlaru eng bilimli suhbatlar ham shubhasiz, Tangri taologa shukrimizni keragicha ifoda eta olmaydi.

Yaratgan Robbimizga shukrlar bo'lsinkim, siz — aziz nafis adabiyot muhoblari bilan yana dillashish nasib etyapti. Bu safar ham adashgan bandalar hayotidan ayanchli lavhani bayon etishni niyat qildim. Chunki bu sinovli dunyoda adashgan bandalar ko'p. Ulug' va qudratli Robbimiz marhamat qilib derki: «Odamlarga ayollardan, bolalardan, to'p-to'p tillo va kumushdan, go'zal otlardan, chorvadan, ekin-tikindan iborat shahvatlarning muhabbati ziynatlandi. Ular dunyo hayotining matohidir. Ollohning huzurida esa husnli qaytar joy bor». (Oli Imron surasi, 14-oyat).

Tafsirchi ulamolarning fikricha, «shahvat» so'zi urfda jinsga oid ma'noda ishlatilsa-da, aslida o'zagi «ishtaha» so'zidan olingan bo'lib, ko'ngil tusashi, xohlashini bildirar ekan. Shunga ko'ra, oyati karimada insonning ayollarga, farzandlarga, boylikka **ishtahasi** mavjudligi, ya'ni shu narsalarga muhabbati chiroyli tarzda **ziynatlangani** ta'kid etilmoqda. «Demak, bu muhabbat insonning asl tabiatida bor ekan. Bunday holatning bo'lishi tabiiy bir hol ekan. Modomiki, ushbu rag'batlar inson tabiatida bor ekan, Ollohning o'zi insonni shunday yaratgan ekan, bu narsalar inson hayotini muhofaza qilishda, uning go'zal va zavqli kechishida xizmat qilmog'i lozim. Shuning uchun Islom

dini mazkur narsalarni harom qilgan emas, balki **muboh** qilgan. Bu narsalarni man qilishni emas, **tartibga solishni** yo'lga qo'ygan. Islom kishilarni tarbiya qilib, **shahvat daryosida halok bo'lmaslikka** chaqiradi. Inson mazkur shahvatlarning quli bo'lib qolmasligi kerak. Balki **ularning hojasi** bo'lib, o'z tasarrufiga olishi darkor.»<sup>1</sup> Oyati karima «Ollohning huzurida esa husnli qaytar joy bor», deb yakunlanadi. Bu joy — jannati naimdir!

Moziyda o'tgan valilardan biri «Dunyo — o'tkinchi mehmonxonadir. Dunyodagi eng ulug' boylik — **dunyoga berilmaslikdir**. Dunyoni afzal bilgan kishi zillatga, xorlikka hukm etilib, halok bo'lur», degan ekan. Yana roviylar derlarki: dunyo yasatilgan kelinchakka o'xshaydir. Ko'zlar unga termulgan, qalblar unga mushtoq, nafslar esa unga oshiqdur. U makkor esa, barcha oshiqnlarni shafqatsiz holda birma-bir halok qiladir. Hayotdagi tiriklar o'lganlardan, keyingilar oldingilardan **ibrat olmaslar...**

Hisob-kitob qilinmasdan burun **nafsini tiygan** kishi **yutadi**. Nafsi bilan g'aflatda qolgan esa, zararga uchraydi.

G'aflatda qolib nadomat chekkanlar qancha?

Qabrison bizga sukunat olami bo'lib ko'rinadi. Aslida ohu faryodlar o'lkasidir! Biz bu faryodlarni eshitmaymiz, bilmaymiz. Shu bois biz mayyitlarning kechmishidan ibrat olmaymiz. Agar tinglay olganimizda edi...

«Murdalar gapirmaydilar», deymiz. Bizga shunday tuyular? Balki ular gapirarlar, biz eshitmasmiz? Eshitsakmi edi...

## MUQADDIMA

Nafisani qarg'adilar:

— O'ynashi bilan yotgan ekan, sharmanda!

...sharmanda... sharmanda...

— So'yib o'ldiribdi. Xudoning o'zi jazolabdi!

...o'zi jazolabdi... jazolabdi...

Nafisaga achindilar:

— Tirnoqqa zor o'tdi, bechora...

...bechora... bechora...

Sanjarni la'natladilar:

— Suyuqoyoqqa ilakishib yurgan ekan, yigit o'lgur!

...yigit o'lgur... yigit o'lgur...

— To'rt bolasi ko'ziga ko'rinmabdi-da, haromxo'rga!

... haromxo'rga... haromxo'rga...

Sanjarga achindilar:

— Qo'y og'zidan cho'p olmagan bola edi, bechora!

...bechora... bechora...

— O'zi pokiza edi, shayton yo'ldan urgan!

...pokiza edi... shayton yo'ldan urmagan... urmagan...

Ikki murda o'likxonada tekshiruvchilarning o'tkir tig'ini kutib yotibdi. Hademay o'tkir tig' ularning qorni, ko'kragi, boshini yoradi. O'lik hujayralarda yashiringan haqiqatni o'qimoqchi bo'lganday titkilashadi. So'ng, yorilgan yerlarini tikib, murdalarni egalariga beradilar.

Nima uchun o'lim topganlaridan bexabar qolgan ikki odam esa, qiyomatni kutib yotmog'i uchun qorong'u lahadga qo'yiladi.

---

<sup>1</sup> «Tafsiri hilol»dan.

So'ng pichir-pichirlar:

«Xotinlarga aralashadigan odati yo'q edi-ku?..»

«G'arko'z edi bu juvon...»

«Kim o'ldirgan ekan?»

«Eri avval ham bir-ikki ushlab, kechirgan ekan. Lalaygan bir erkak-da! Bu safar chidolmabdi, boyaqish...»

### ***Birinchi bayon: yashash huquqi***

#### **ARRALANGAN DARAXT**

O'zini osmon tirgovichi, deb faraz qiluvchi kekkaygan daraxt jazosini arra berdi: u o'zidan oldingi og'ochlar qismatiga yetdi — jon tomiri uzilib, yerga uzala tushdi.

Tursunali bu manzarani dastlab ko'rganida o'zining kechmishini shu daraxt qismatiga o'xshatgan edi. Uning qaddi ham shu og'och kabi adl edi. U makon topgan daraxtzor, nazarida dahlsiz edi. Bu daraxtzorda istaganicha quyoshdan nur emishi, huzurlanib chayqalishi mumkin edi. Tomirlari toboro kuchliroq qudrat kasb etib borardi. Ammo kutilmaganda uning daraxtzoriga bolta oraladi: bir chekkadan chopa boshladi. Navbat o'ziga yetganida unutilayotgan rivoyatni esladi. Emishki, bir o'rmonda bolta paydo bo'lib, daraxtlarga qirg'in keltiribdi. Og'ochlar unga qarshi chora topolmay, qari Emandan maslahat so'rashibdi. «Bolta deganlaring nima o'zi? U nimadan ishlangan?» deb so'rabdi Eman. «Bolta — temirdan yasalgan bir matohdir», deb javob beribdilar. «O'zi-ku, temir ekan, dastasi-chi? Dastasi ham temirdanmi?» deb so'rabdi Eman. «Yo'q,— debdilar, — dastasi — og'ochdan, o'zimizdan». «Dastasi o'zimizdan bo'lsa, unga chora yo'q», degan ekan Eman.

Tursunali makon topgan «daraxtzorda» «bolta» paydo bo'lishi bilan unga dasta bo'lishga oshiquvchilar ko'paydi. Oqibatda Tursunalining ildizlari chopildi-yu, sovxoz direktorligidan raykom sarkotibligiga o'taman, deb niyat qilib turgan odam egniga mahbuslarning paxtalik kalta choponini kiyib, uzoq sovuq o'lkadagi daraxt kesuvchilar safida o'zini ko'rdi. Uyqusiz kechalarda bu baloga muhtalo bo'lish sabablarini ko'p o'yladi. Tuzini yeb tuzlig'iga tupurganlarni la'natladi. Do'st libosidagi ilonlar boshini birma-bir yanchishni diliga tugdi.

Xudoning qarg'ishi tekkan bu joylarga kelgunicha bo'lgan o'tmish kunlarini eslasa, ko'z oldini zulumot pardasi qoplayveradi. Bu zulumotni gohi-gohida faqatgina bir nur yoritardi. Bu nur Nafisaning chehrasidan taralardi. Shunday paytda Nafisaning dimog'idan taralgan iliq nafas unga tiriklik shuurini berardi. Azobli kechalarda ham farzandlarining onasi, halol juftiga nisbatan shu Nafisani ko'proq o'ylardi, uni qo'msardi. Bunga ba'zan o'zi ham ajablanardi. «Nima bu? Shunchalik qattiq sevarmidim?» deb o'ylardi. Tursunali shahvoniy hirs bilan sevgi farqini ajrata oluvchi aqlga ega emasdi. Buni sinamoq uchun Nafisaga nisbatan yoshroq, go'zalroq, ishvalari shirinroq qiz ro'para qilinsa, bas. U «sevgi» deb o'ylab yurgan tuyg'u o'lardi-qolardi. Hozircha, Nafisaning birinchi tunda shivirlab aytgan «Munchalar yaxshi ekansiz», degan gapi qulog'i ostida turibdi. O'zga iliq nafas bilan aytilishi mumkin bo'lgan shunday so'z o'tmish totli kechalar yuziga qora parda tortmog'i ta-yin. «Ahmoq bo'lib shu juvonga ilakishib yurgan ekanman. Dunyoning lazzati bu yoqda ekan-ku?» demog'i ham aniq edi...

Ammo hozir, u bularni o'ylamaydi, orzu qilmaydi. Uning dardi ham, niyati ham bir — tezroq bu o'laksazordan qutulish! Qachon, qanday qutuladi, — bandasiga qorong'i.

Yurtida uning uchun kuyib-eladigan, pul sarf qilib ozodlikka chiqarish uchun tashvish chekadigan odami yo`q. Demak, yana o`n to`rt yil mahbuslik libosida yurmog`i rostga o`xshab turibdi.

Tursunali ana shu og`ir dard tog`ini yelkasiga ortgan holda o`ringa cho`ziladi, sahar chog`i shu yuk bilan qaddini rostlaydi. Ba`zi erkaklar yig`laydilar. Ba`zilari dardlarini aytib, hasrat qiladilar. Tursun-ali dardini kimga aytsin, kimga yig`lasin, kimga hasrat dasturxonini ochsin?!

Bir yigit kelib edi. Istarali bu yigitning pokiza odam ekanini yuzidan yog`ilib turgan nur oshkor etib turardi. Tursunali «Bu yigitni menga Yaratganning o`zi yetkazdi», deb quvongan edi. Bugun bu quvonch ham balchiqqa qorishadiganga o`xshab turibdi. Tursunali shu havotirda daryo tomonga qarab-qarab qo`yadi. Yigitni sohildagi qo`lbola chayla tomonga boshlab ketganlar. Bu yerga kelgan kunining yo uchinchi, yo to`rtinchi kuni Tursunali ham shu chayladagi suhbatga chorlangan edi. O`shanda qo`liga bolta olib, arralab yiqitilgan daraxt shoxlarini endi butay boshlagan edi. Pachoqburun bir mahbus yaqinlashib, he yo`q, be yo`q:

— Ey, chuchmek, yur bu yoqqa! — deb buyurdi.

Tursunali u damda osiyoliklarning «chuchmek» deb atalishini bilmas edi. Shu sababli murojaat kimga qaratilganini anglamay:

— Menga aytyapsizmi? — deb so`radi.

Pachoqburun hech bir takallufsiz Tursunali tomon chirt etib tupurdi-da, labini kafti bilan artidi:

— Senga aytyapman! — deb to`ng`illadi.

Chakalak orasidagi yolg`izoyoq yo`ldan borayotganida Tursunalining yuragiga vahm oraladi. U qamoq lagerlaridagi odam o`ldirishlar haqida eshitgan edi. Bu Pachoqburunning so`xtasi bunchalar sovuq bo`lmasa! Onasidan tug`iliboq odamxo`rlikni kasb qilib olganini basharasining o`ziyoq aytib turibdi. Ana shu bashara Tursunalini qo`rquvga soldi. Agar hozir unga «bu odam qotil emas, qulfbuzarlarning ustasi», deb haq gap aytilsa ham ishonmagan bo`lardi.

«O`ldirgani olib ketyaptimi?» deb o`yladi Tursunali. So`ng «Nimaga o`ldiradi? Endigina kelgan bo`lsam?..» deb o`ziga o`zi tasalli berdi. Qamalganidan beri mutelik jandasini egniga ilib, soqchi «yur» deb buyurganda yurib, «o`tir!» desa o`tirib, «qo`lingni orqaga qil», desa qo`lni orqaga bog`lab turishga ko`nikib qolgan Tursunali bu safar ham yuvvosh qo`y kabi «qassob» — Pachoqburunning yetovida yurib borardi. Tursunalidan qo`y ham tuzuk. Qo`y qassobni ko`rganida ma`rab qo`yadi. Tursunali esa, aqalli bir og`iz gap aytishga ojiz.

Chakalakzordan o`tib, daryo sohiliga chiqishdi. Shoxshabbalardan yasalgan qo`lbola chaylaga yaqinlashganda Pachoqburun orqasiga o`girilib:

— Shu yerda to`xta! — deb buyurdi.

«Yuvvosh soqov qo`y» amrga itoat etdi.

Hali quyosh ko`tarilib, borliqni ilita olmagan bo`lsa-da, chayla xojalaridan ikki kishi yarim yalang`och holda o`tirib tamaddi qilishardi. Pachoqburun ularga yaqin borib, buyruq ado etilganini ma`lum qilgach, hojalardan biri Tursunali tomon qarab qo`ydi-yu indamay lunjidagi taomni chaynayverdi. Pachoqburun u yerda, Tursunali esa yigirma qadam berida xoda yutganday tik turib, ularning taomdan bo`shashlarini kutdilar. Nihoyat, qorin to`yib, nafs orom olgach, yaqinlashmoqqa ijozat bo`ldi.

Tursunali ulardan birini tanidi: u ichki qo`shinlar mayori kiyimida yuradigan, oshxonadagi tartibni kuzatuvchi odam edi. Rezina tayog`ini ko`z-ko`z qilib, o`ynatib yuruvchi bu mayor tartib buzuvchining gardaniga ayamay urib qolardi. Qo`li qichib turgan bo`lsa-yu, tartib buzilmasa, sho`rvasini xo`rillatib ichayotgan odamning ham

gardaniga tushirib qolishdan toymasdi. Mayor oshxonada kimning yoniga yaqinlashsa, o'sha odam iloji bo'lsa, ovqatni chaynamayoq yutishga harakat qilardi. Chaynalmagan ovqatni oshqozon hazm qilib yuborar, ammo gardanning rezina tayoq zarbini hazm qilishi qiyinroq edi.

Tursunali yaqinlashgach, mayor o'rnidan turib, ikki qadam naridagi ko'katlar ustiga tashlangan kiyimlar yonidan tayog'ini olib, chap kaftiga urib qo'ydi-da, uning orqasiga o'tdi.

«Uradi shekilli?» deb o'yladi Tursunali. Orqadan zarb kutgani uchun u beixtiyor bukchaydi. O'tirgan odam uning bu holatini ko'rib kuldi-da:

— Qo'rqma, urmaydi, — deb ovutdi.

Bu odamning kulishi o'ziga yarashardi. Timqora ko'zlari Pachoqburunniki yoki orqada turgan malla ma-yorniki kabi yovuzlik bilan boqmasdi. Qaldirg'och mo'y-labi ham o'ziga yarashgan edi. Shu sababli Tursunali uni mahbus emas, shu yerning kattalaridan deb o'yladi.

— Men — Tengizman, o'tir, bugun sen menga qo'noqsan.

Bu ismni eshitib, Tursunali ajablandi. Chunki u kelgan kuniyoq yotoqdagi qo'shinishidan «Bu yerning asl xo'jayini polkovnik emas, ashaddiy o'g'riboshi Tengiz bo'ladi», degan gapni eshitgandi. «Tengiz» deganlari umri qamoqda o'tgan, Pachoqburun kabi xunukbashara keksa odam deb o'ylagan edi. O'zidan yoshroq bir yigitning «Men — Tengizman», deyishi shu sababli ham uni ajablantirdi.

— Gapimni eshitdingmi? Kel, o'tir.

Tursunali itoat bilan, huddi qaynonasinikiga birinchi marta kelgan uyatchan kuyov kabi o'tirdi. «Ol, ye», degan taklifni o'rinlatib bajarolmadi. Bir-ikki tishlam non yeb, maydalangan go'shtga qo'l uzatmadi. Yegisi kelib turgan bo'lsa ham, ko'ngli tortmadi. Qamalguniga qadar ovqatlarning sarasini yeb o'rgangan odam das-turxon ustidagilarni sarqit deb bilib, irgandi. Mehmonga kechikibroq borsa, darhol dasturxon yangilanardi... Endi o'sha kunlarning sadag'asi ketsa arziydi...

Har bir harakatini diqqat bilan kuzatib o'tirgan Tengiz nafsni yengishga nima sabab bo'layotganini sezdi:

— Hazar qilyapsanmi? Nega yemayapsan?

— Hazar qilayotganim yo'q. Qornim to'q.

— Hozircha yangisan. Yana uch-to'rt oy o'tsin, birov chaynab tashlagan chandirni ham ko'zingga surtib yeydigan bo'lib qolasan. Sen menga qo'noqsan. Ol, ye! Meni ranjitma!

Avvalgi taklif endi buyruqqa aylangach, Tursun-ali beixtiyor go'shtga qo'l uzatdi. Bu buyruqdan so'ng «qorni to'q odam» dasturxonni yamlab yutayozdi. U ov-qatlanib bo'lgach, Tengiz dasturxonning bir uchini qa-yirib yopdi-da, Pachoqburunga qaradi. Buyruqqa mahtal turgan mulozim bu qarashning ma'nosini uqib, dasturxonni yig'ib oldi-yu, nari ketdi. Tengiz ma-yorga ham bir qarash qilgan edi, u kiyimlarini qo'litiqlab, chayla ortiga o'tdi.

— To'xtaev, gap bunday, — dedi Tengiz xoli qolishgach.

«Mening familiyamni qaerdan bila qoldi?» — deb ajablandi Tursunali. So'ng «qamoq lageri boshlig'idan ustunroq mavqedagi odamga shuni bilish qiyin ekanmi?» deb qo'ydi.

— Sen albatta tuhmat bilan qamalgan bo'lishing kerak, a?

Qora bulut choki so'kilib, birdan quyosh charaqlaganday bo'ldi: Tengiz Tursunalining ko'nglidagi gapni topib aytgan edi.

— Ha, tuhmat bilan qamashdi, — dedi Tursunali yutinib.

— Bu yerdagilarning hammasi oʻzini passajir<sup>2</sup> deb hisoblaydi. Seni bu yerga tuhmat boshlab kelmagan. Hasislik qilgansan. Pupkarlarni vaqtida moylash kerak edi.

— Kimni?

— Milisani! Nima, bunaqa soʻzlarga tushunmaysanmi?

— Ularni... rosa moylaganman. Bekorga yeb ketishdi.

— Yetarli moylamagansan. Molning chanqogʻini tomizgʻichdagi tomchi suvlar bilan qondirib boʻladimi?

— Bizning ish Maskovning qoʻlida edi. Ularni chelaklab ham sugʻorib boʻlmas ekan.

— Boʻlmaydigan ish yoʻq bu dunyoda, Toʻxtaev! Nima uchun Moskva senlarga yopishdi, bilasanmi?

— Yoʻq, bilmayman.

— Otam rahmatli aytib berardilar. Urush mahalida ikkita oʻzbekka bitta miltiq berisharkan. «Bittang oʻlsang, ikkinching olib otaverasan», deyisharkan. Otalaring shunga ham koʻnishavergan. Senlar ham otalaringga oʻxshagan laqmasanlar. Ahil emassanlar. Bir-birlaringni sotishni yaxshi koʻrsanlar. Kozyol<sup>3</sup> ham koʻproq senlardan chiqadi. Senga oʻxshagan sovxoz direktori boshqa yerda yoʻqmi? Muttaham, poraxoʻr hamma yerda toʻlib yotibdi. Bunaqalar Armanistonda yoʻqmi? Be, senlardan koʻra koʻproq u yerda. Lekin Gobelyan u yoqqa bormaydi. Oʻzinikiga tegmaydi. Senlarning yarmingni qirib tashlasa ham gʻing demaysan-da. Qani, Gorbach armanilarga tegib koʻrsin-chi! Mos- kvangning oyogʻini osmondan qilib yuborishadi. Senlar esa... — Tengiz hafsalasi pir boʻlib qoʻl siltadi. — Senlar mishiqlaringni oqizib, «tuhmatdan qamaldim», deb yigʻlab yuraverasanlar. Endi gap shu, bilmasang bilib ol: men — oʻgʻriman! Ochiqda yurganingda mendaqalardan nafratlanarding, a?

— Yoʻq... nega?

— Talmovsiramam. Biz — oʻgʻrilar, senlarning nazarlaringda eng pastkash odamlarmiz. Aslida esa, senlar pastkashsanlar. Biz oʻgʻrimiz, bu bilan faxrlanamiz. Bilib qoʻy: eng halol odamlar bizlarmiz. Shuning uchun ham odamlar taqdirini hal qilish huquqiga faqatgina bizlar egamiz. «Chestnyaga» degan soʻzni eshitganmisan? Ana oʻshalar bizlarmiz. Bizda halollikdan bir enlik ham nari-beri chekinilmaydi. Doʻstga xiyonat yoʻq. Kim bunga jurʻat etsa — boshi ketadi. Senlarda halollik bormi? Sadoqat bormi? Yoʻq! Hech narsa yoʻq! Oldingda ikki yoʻl bor: agar tirik qolsang, oʻn toʻrt yildan keyin uyingga borasan. Umring qisqa boʻlsa, shu yerda oʻlib ketasan. Bilib qoʻy, bu yerlarda ilonlar koʻp. Bir chaqishda oʻldiradi. Agar xizmatimizni bekamu koʻst qilsang, seni ilonlardan oʻzimiz qoʻriqlaymiz.

— Nima xizmat buyursangiz... tayyorman!

— Nima balo, pionermisan, doim tayyorman, deysan? Sen oʻylab, shoshilmay javob ber.

— Shoshilsam-shoshilmasam, menga suyanadigan bir togʻ kerak-ku?

— Togʻ, dedingmi? Yaxshi aytding. Sen suyanadigan togʻ bor. Ammo... — Tengiz jilmaydi. Bu jilmayish avvalgiday begʻubor emas, balki ayyorlik yeli bor edi unda. — Ammo, suyanish uchun togʻ haqini toʻlashing kerak. Ochiqlikda har oy maosh olardingmi? Ha, olarding. Xuddi shunga oʻxshab, suyanadigan togʻ haqini har oyda toʻlab turasan. Sen bugun biksa<sup>4</sup>ngga bir malyava<sup>5</sup> yozasan. Har oyda pul yuborib turadi.

---

<sup>2</sup> *Passajir* — tasodifan qamalgan odam.

<sup>3</sup> *Kozyol* — qamoqxona maʼmuriyatiga faol yordamchi.

E s l a t m a: qamoqxonadagilar, xususan oʻgʻrilar tiliga xos ayrim iboralarni tarjima qilmay, aslicha yozishni maʼqul koʻrdik. (*Muallif.*)

<sup>4</sup> *Biksa* — xotin.

<sup>5</sup> *Malyava* — xat.

— Pul? Qanchadan?

— Buni xat olib borgan odam aytadi.

— Pulni bu yoqqa yuboradimi?

— Bu sening ishing emas. Pulni bizga tegishli odam borib oladi. Agar shartimizni bajarmasang, avvaliga tramvayga qo'yamiz. Keyin bespredelshik<sup>6</sup>ning ermagiga topshiramiz.

Ertalabki mehmondorchilik ana shunday «shartnomani imzolash» bilan yakunlandi. Shart bajarilmagan taqdirda Tursunali o'zini qanday jazo kutishini kech yotar mahalida bildi. Yotoq qo'shnisidan «tramvayga qo'yish» nima ekanini so'rab, «seni hammomga olib kirib, yigirma-o'ttiztasi galma-gal «gaplashib» chiqsa — tramvay bo'ladi», degan javobni olganida badani muzlab ketdi.

Hozir, chayla tomonga qarab turgan choqda ham shu tadbir esiga tushib, bir seskandi.

Kecha lagerga olib kelingan yigit Tursunaliga xush yoqib, «mening haloskorim shu», deb o'ylagan edi. Yoshi yigirma beshni qoralagan bu yigit o'zini Nuriddin deb tanishtirdi. Besh yil muqaddam qamoqqa solingan Nuriddin uchun bu yer uchinchi lager edi. Bu yerga kelguniga qadar avval Ukraina, so'ng Turkmaniston qumliklarida pishgan bu yigit yana o'n yil umrini shunday sarsonlikda o'tkazmoqqa mahkum edi.

Nuriddinning darhol Tengiz suhbatiga chorlanishi qamoqxona olami qonunlaridan uzoq bo'lgan Tursunali uchun tushunarsiz edi.

Tengiz Nuriddinni dasturxonga taklif etmadi — tog'liklar odatiga sodiq qolmay, mehmonni izzat qilmadi. Bir necha daqiqa tik turgan holda gaplashishgach, chayladan baquvvat yigit chiqdi-yu, olishuv boshlanib ketdi. Tepadan kuzatib turgan Tursunali yigitga achindi. Boltani ko'tarib yugurgisi, uni himoya qilgisi keldi. Ammo bu xohish chaqmoq umri kabi qisqa edi. Xohish chaqmog'i so'nib, joni ko'ziga ko'ringach, o'zini tiydi.

— Hay Chuchmek! Sen uchun men ishlaymanmi?

Bu ovoz Tursunalini hushiga keltirdi. Chayla tomonga boshqa qaramay, daraxt shoxlarini butay ketdi.

Pastda nima voqea yuz berganini o'ng qoshi yorilgan, chap bilagi tilingan, badani musht va tepki zarblaridan mo'mataloq bo'lgan Nuriddin yotar mahalida aytib berdi.

### «IMOM HAMZAT»

Bunday suhbatga chorlanish Nuriddin uchun yangilik emasdi.

Chakalakzordan o'tib, sohilga yaqinlashganida chayladan Tengiz chiqdi. Pachoqburunning amri bilan Nuriddin beriroqda to'xtadi. Tengiz uning ro'parasida turib olib, boshdan-oyoq tikildi. So'ng u tomon uch-to'rt qadam qo'ydi.

— Senga «esh-shak» deb laqab qo'yishibdi. Nima uchun aynan «esh-shak»?

Nuriddin Tengiz tikilganida ko'zlarini olib qochmadi. «Sendan qo'rqadigan odam emasman», deganday tik boqqanicha turaverdi.

— Gapimga javob ber: nima uchun seni «esh-shak» deyishdi?

— O'zlariga o'xshatishmoqchi bo'lishgandir.

— Shunaqami? — Tengiz istehzoli jilmaydi. — Sen qaysar emishsanmi?

— Beayb Parvardigor.

— Shunaqami? — Tengiz unga yanada yaqinlashdi. — Sherigingni nima uchun otib tashlagan eding?

— Ablahligi uchun.

---

<sup>6</sup> Sadizmni xush ko'ruvchi, «qonundagi»larning odatini tan olmovchi, vahshiysifat odam.

— Kofirligi uchun emasmi?

— Kofirning ham insoflisi, vijdonlisi bor. Kofirning ham o'ziga yarasha e'tiqodi bo'ladi. U kofir emas, ablah edi.

— Bublikni taniysan, a?

Tanimay-chi?! Nuriddin Turkmanistondagi lagerga kelganidan to ketgunicha u bilan it-mushuk bo'lib yashadi. Qoshlarigacha qirib yuruvchi bu odamni hamma «Bublik» der, ko'pchilik undan hayiqib yurardi. Nuriddin esa, unga «maymun» deb laqab berib, bo'ysunishni istamagan edi.

— Bublikni taniysan, — dedi Tengiz undan javob kutmay. — Bublik sendan xafa. Xizmatidan bo'yin tovlabsan. Nega xizmatini qilmading?

— Men uning quli emasman.

— Qiziq... qiziq... sen yanglishma, esh... bola, kimdir kimgadir qul bo'lishi kerak. Bu dunyo o'zi shunaqa. Sening qullikdan o'zga chorang yo'q. Yo qul bo'lib yashaysan, yoki o'lasan!

— Odamning qulligi to'g'ri. Lekin siz ham yanglishmang. Odam faqat Yaratgangagina quldir. Banda bandaga qul bo'lmaydi. Ayniqsa, musulmon kofirga qul bo'lmaydi.

— Men Tengizman! Mening xizmatimni qilasanmi?

— Yo'q.

— O'ylab javob ber.

— Bublikka nima javob qilsam, sizga ham javobim shu.

— Mendan qo'rqmaysanmi?

— Nega qo'rqishim kerak? — Nuriddin unga tik qaraganicha jilmaydi. — Siz meni urarsiz, nari borsa o'ldirarsiz. Odamlar o'limdan qo'rqadilar. Ularning nodonligi ham shunda. Qo'rqsa-qo'rqmasa baribir o'ladi-ku? Men o'limdan qo'rqmayman. Demak, sizdan ham qo'rqmayman. Men faqat Ollohdan qo'rqaman.

— Durustsan, bola! Ammo o'limning har xili bo'ladi. Yoshlikda o'lib ketaverish alam qiladi. Men, masalan, hozir o'lishni istamayman. Hali ko'p yashashim kerak. Ko'p odamlar bilan hisob-kitobim bor.

— Bu siz bilan mening istagimga qarab bo'ladigan ish emas. Bu yog'i taqdir yozug'imizga bog'liq. Lekin Xudo sizga uzoq umr berishi mumkin.

— Nega? — Tengiz Nuriddinning gapidan chindan ham ajablandi.

— Ollohning va'dasi bor: ba'zi odamlar yanada ko'proq gunoh qilib olishi uchun umrini uzoq qilar ekan.

Bu gap Tengizga yoqmadi:

— O'chir ovozingni! — deb jerkib berdi.

— Bu mening gaplarim emas...

— O'chir, deypman! Menga qara, qaysarliging uchun senga «esh-shak» deb laqab berishgan. Xo'sh, esh-shakligingcha qolasanmi yo biz aytgan yo'lga yurasanmi?

— Siz aytgan yo'lga yurmayman, ovora bo'lmang.

— Unda o'lasan.

— Buni Xudo biladi.

— Yaxshi, mardliging ham bor ekan. Mayli, seni itday xorlatib o'ldirmayman, erkakday o'lishing uchun imkoniyat yaratib beraman. Mening odamim bilan yakkama-yakka olishasan. Tanla: musht bilanmi yo tig' bilanmi?

— Tanlash huquqini sizlarga berdim. Odamingizning chog'i nimaga kelsa, shunday olishsin.

— Katta ketma bola! Demak, bunday: avval musht bilan, keyin tig' bilan!

Raqibini pichoq bilan nobud qilguday bo'lsa, boshiga balolar orttirishi mumkinligini bilgan Nuriddin tig'ni rad etdi:



- Ikkala imkoniyatni odamingizga berdim. Men mushtimga ishonaman.
  - Katta ketyapsan, bola! Bilib qo'y: bu olishuvda faqat bitta odam tirik qoladi.
- Tengiz shunday deb uch qadam chekindi-da:

— Bifshteks! — deb chaqirdi.

Mushaklari o'ynab turgan baland bo'yli yigit hayallamadi. Harqanday raqibini qiymalab tashlashga qodir bo'lgani uchun «Bifshteks» laqabini olgan bu yigit Tengizning birgina imosidan maqsadini anglab, jang-ga hozirlandi. Tengiz hali jang maydonini bo'shatmay turib, keskin tarzda bir aylandi-da, raqibining jag'ini mo'ljallab tepmoqchi bo'ldi. Nuriddin garchi bu qadar tez hamlani kutmagan bo'lsa-da, jangga shay edi. Shu bois jag'ini tepki zarbiga ro'para qilib qo'ymadi. Keskin engashib, shu asnoda mushtini ishga solishga ulgurdi. Bifshteks kuchli zarbaga mo'ljallab havolatilgan oyog'ini idora qilishga ulgurmay nozik yeridan musht yeb, bukchayib qoldi. Nafasi qaytib, ing-rab yubordi. Nuriddin uning o'ziga kelib olishini kutib, chekindi.

— Payti kelganda urib qol! — dedi Tengiz.

— Men nomard emasman, — dedi Nuriddin raqibidan ko'z uzmay.

— Unda o'zingdan ko'r. U senga mehribonlik qilib o'tirmaydi.

— Mehribonligiga zor emasman.

— Rostdan ham esh-shak ekansan! — Tengiz shunday deb sigaret tutatdi. So'ng o'zini hanuz o'nglay olmayotgan mulozimining ketiga tepdi. — Bir mushtlik holing bormi, bundan ko'ra o'lganing yaxshimasmi? Bo'ldimi, ketaversinmi?

— Yo'-o'q! Bu yerdan bitta odam ketadi. Men hozir uni qiymalab tashlayman. — Bifshteks shunday deb cho'ntagidan buklama pichoq chiqarib, tugmachasini bosdi; dudama tig' oftobda yaltillab ketdi.

Nuriddin uchun bu birinchi olishuv emasdi. Shu sababli dovdirab qolmadi. Yengil harakat qilganicha Bifshteksni chalg'itib, birin-sirin zarbalar bera boshladi. Faqat bir marta tig' uning chap bilagini tilib o'tdi. Tilingan yerdan sizib chiqqan qonni ko'rib, Bifshteks mamnun jilmaydi. Buni jon olg'uvchi asosiy zarbaning debochasi deb o'yladi. Ha, chindan ham bu asosiy zarbalarning boshlanmasi edi. Ammo zarbalarni u emas, Nuriddin berdi. Ketma-ket tepki zarbalari uning hayot-mamotini hal qildi: avval jag'i sinib, iyagi uzilib, uchib ketay dedi. Keyingi tepki bo'g'zini pachoqladi. Nafasi bo'g'ildi. Ko'ziga qon to'lgan Nuriddin uning bu holini ko'rmadi. Chaqqon sakradi-da, ikkala oyog'i bilan uning ko'kragini mo'ljallab tepdi. Tepish asnosida o'zi ham chalqancha yiqilib, bir necha nafas hushini yo'qotdi. Hushiga kelgach, tepasida pichoq sanchishga tayyor turgan Bifshteks paydo bo'lishini kutdi. Sakrab turmoqchi edi, badani o'ziga bo'ysunmadi. Yana ikki-uch nafas behol yotib, so'ng qaddini asta ko'tardi. To'rt-besh qadam narida uzala tushgan Bifshteksni, tiz cho'kanicha uning bilagini ushlab ko'rayotgan Pachoqburunni, uning tepasida sigaret tutatib turgan Tengizni ko'rib, olishuv yakunlanganini fahmladi.

— O'libdimi? — dedi Tengiz, sigaret qoldig'ini nari uloqtirib. — O'libdimi?! Nega baqaga o'xshab angrayasan?

Pachoqburun tasdiq ishorasini qilib o'rnidan turdi. Tengiz orqasiga o'girilib, Nuriddin tomon yurdi.

— Ko'rdingmi? O'libdi. Eng yaxshi odamimni o'ldirding. Xo'sh, endi nima qilamiz? Qolgan o'n yilingni yigirma beshga aylantiramizmi? Yo menga qo'shilsanmi?

Nuriddin o'rnidan turib, labidagi qonni artdi.

— Sizga qo'shilsam, urishib o'tirmas edim.

— Sen oliftagarchilik qilma, baribir sinasan.

— Sinishdan oldin o'zimni o'ldiraman.

Tengiz bir so'kindi-da, o'girilib, Pachoqburunga baqirdi:

— Nimaga lallaysan?! Ko'tar, daryoga tashla. Kum<sup>7</sup>ga borib, Bifshteks qochdi, deb ayt. Keyin lepila<sup>8</sup>ni boshlab kel.

Qamoq lagerining tabibi muolija qilib ketgach, Tengiz Nuriddinni chaylaga boshladi. Eski gazetalaridan iborat «dasturxon» usti betartib edi. Pachochqurun kirib, chala yeyilgan non-go'shtlarni yig'ishtirib chiqib ketgach, Tengiz alyumin krujkaga to'latib aroq quyida, mehmonga uzatdi. Nuriddin uni olish uchun qo'l ham uzatmadi.

— Ha, — dedi Tengiz, qoshlarini chimirib. — Hazar qilyapsanmi?

— Ichmayman, — dedi Nuriddin. So'ng tarang vaziyatni yumshatish maqsadida qo'shib qo'ydi: — Shu paytgacha ichmaganman.

— Namoz o'qiysanmi?

— Yo'q.

— Unda menga o'xshagan chala musulmon ekansan. Ichmaydigan odamlarni hurmat qilaman. Ichishni anavi to'ng'izlarga chiqargan. Bu nima, bilasanmi?

— Aroqni aytyapsizmi?

— Ha, sen bilan men buni aroq deymiz. Aslida bu bizning millatimizni qirib tashlovchi atom bomba. Bu enag'arlar bizlarni qanday quritishni bilishgan. Sen bilan biz buning fahmiga bormay ichaveramiz, ichaveramiz. Ichib olib bolalarni tug'diraveramiz. Borib-borib millat qirilib ketganini bilmay qolamiz. Senlar ko'psanlar, uncha bilinmas balki. Ammo biz kammiz. Hademay qirilib bitamiz.

— Siz... gruzinmisiz?

— Yo'q... — Tengiz miyig'ida kuldi: — Men — avarman! — Tengiz bu gapni iftixor bilan aytdi. — Avar degan xalq bor bu dunyoda, eshitganmisan?

Nuriddin eshitmagan edi. Bir oz xijolat bo'lgani holda bu haqiqatni tan oldi.

— Sen meni gurjiga o'xshatma. Ular Qofqazni sotishgan. Mening bobolarim esa qofqazimizni bu kofir to'ng'izlardan himoya qilgan. Imom Hamzat, imom Shomil, Hojimurodlarni eshitganmisan? Ha, eshitmagansan.

— Men... o'qimaganman. Sakkizinchini bitirib, dalaga chiqib ketganman. Keyin harbiyga chaqirishib, Afg'onga tashlashdi. Keyin bu yerlar... Qo'limga bitta kitob olib o'qimaganman sira.

— Unda seni «esh-shak» deganlari to'g'ri ekan. Qaysarliging uchun emas, o'qimaganing sababli esh-shaksan. O'qimagan odamning esh-shakdan nima farqi bor? Sen mening tariximni bilmaysan. O'zingnikini bilasanmi? Sening hamzatlaring, shomillaring bormi? Bilmaysan! Esh-shak ham o'zining ota-bobolarini bilmaydi. Gaplarimga hayron bo'lyapsanmi? «O'g'ridan ham shunaqa gaplar chiqadimi?» deyapsanmi? Men o'g'ri bo'lib tug'ilmagan edim. Ota-bobom ham o'g'ri emasdi. Men o'zimnikilarning ushug'iga ham xiyonat qilmaganman. Men yerimga o'g'ri bo'lib bosib kirganlarning mol-joniga qiron keltiraman. Men o'g'ri emas, qasoskor, xunxo'rman! Ammo o'g'ri degan unvonni olganman. Men uchun qasosning o'zgacha yo'li yo'q. Bilasanmi, men salkam oliy ma'lumotli faylasufman. Ha... meni to'rtinchi kursdaligimda haydashgan. Leningradda o'qirdim. Bir professor bor edi, — Tengiz shunday deb istehzoli jilmaydi. — Nikolay Aleksandrovich Sagoev degan. Qiziq, a? Ismi o'rischa, nasabi tog'liklarniki. Keyin bilsam asli Nazir Alievich Sagoev ekan. Tilimni tiyolmay o'shanga bir kuni aytdim: «Muhtaram professor, mayli, o'zingizning ismingizni o'rischa qilibsiz, otangizning shunday chiroyli ismini nega o'zgartirasiz? Sizda tog'liklar nomusidan zarracha bormi?» dedim. U enag'ar meni komsomol majlisiga qo'ydi. Mening qaysarligim tutib, majlisda avarcha gapirdim. O'sha professorning o'zi tarjima qilib turdi.

---

<sup>7</sup> Lager boshlig'i.

<sup>8</sup> Do'xtir

O'ris deganlarning jazavalari tutganini ko'rsang edi. Qo'llaridan kelgani — meni komsomollaridan haydashdi. Shartta turib: «Men avarman! Avarligimcha o'laman! Tupurdim senlarga!» dedim. Shu bahona bo'lib o'qishdan haydashdi. Keyin men bu «o'qishga» kirdim. Birinchi qilgan ishim — Sagoevning uyini bosdim. Avar knyazlari ham unchalik boy bo'lishmagandir. Tog'lik yigitlarni o'qishga kiritib qo'yaman, deb tozza shilar edi u enag'ar. Uyini shilib, qolgan-qutganini yoqib yubordim. O'n yil badalida ikki marta qo'lga tushib, pishdim. O'n birinchi yili «qonundagi o'g'ri» martabasini berib, menga toj kiydirishdi. Endi bildingmi, kimligimni? Bu to'ng'izlar meni qul qilish uchun yeringa bostirib kirishgan edi. Endi ularning o'zlari mening qulim. Bifshteknsni o'ldirganing uchun zarracha afsuslanmadim. Bu enag'arlar qancha ko'p o'lsa, shuncha yaxshi. Sen esa... yashashing kerak! Men senga «Hamzat» deb nom beraman. Shomil bilan Hojimumrod ham bizning qahramonlarimiz. Lekin men ularni uncha yaxshi ko'rmayman. Ular oxiri sinishgan. O'risga taslim bo'lishgan. Hamzat esa, sinish u yoqda tursin, hatto salgina egilmadi. Joynamozning ustida boshi uzildi. Senda ham shunga yaqin fazilat ko'rdim. Shuning uchun senga mehrim tushdi. Shuning uchun bu gaplarni senga aytyapman. Ammo sen bola, qaysarligingni arzon bahoga sotar ekansan. Sen mayda-chuyda gaplardan ustun tur. Sen millat uchun sobit bo'lishni o'rgan. Shunga aqling yetadimi? Yo'q, yetmaydi... Afsus, afsus, yetmaydi. Men o'zbeklar orasida senga o'xshagan mardini kam ko'rganman. Senlarning sinishlaring oson. Sen bu yerlardan sinmaydigan odam bo'lib chiq. Ko'zlaringni ochib, odam bo'lib chiq! Hamzat, bir kuni kelib gaplarimni eslaysan. Ana shunda bu o'g'ri unchalik ahmaq emas ekan, deb tan olasan.

Hayot-mamot olishuvi Nuriddin, endilikda Hamzat uchun kutilmagan hodisa edi. Qahrli o'g'rining bu gaplari esa, mutlaq kutilmagan hol bo'ldi. Bu gaplarning mag'zini chaqishga harakat qildi. Keyingi uchrashuvlarda yana shu haqda gap ochilarmikin, deb kutdi. Biroq, Tengiz qahrli o'g'riboshi libosini yechib, ochilib gaplashmadi. Faqat ancha keyin, nohush voqealar so'ngida, ajralar mahallarida «Sen mening himoyamdasan. Men o'lsam, odamlarim himoya qiladilar. Sen o'sha kungi gaplarimni unutmang bo'ldi: aslo sina ko'rma!» deb ta'kidladi.

### «MURIK»

Qamoq olamining ikki tartib-intizomi bor. Birinchisiga huquq idoralari tartib berganlar. Bunisi qog'ozga tushgan, muhrlangan. Unga ko'p holda amal qilinmaydi. Ikkinchisi qog'ozga yozilmagan, muhrlanmagan. Ammo unga bexato tarzda bo'ysuniladi. Qonundagi o'g'rilar tomonidan joriy etilgan tartib-qoidalarning buzilishi ulug' bir fojia sanalib, buzg'unchi kechirilmaydi.

Qamoqxonalar, lagerlar garchi simto'siqlar bilan o'ralib, qurolli soqchilar bilan qo'riqlansa-da, o'g'rilar turli o'lkalarga sochib yuborilgan bo'lsa-da, ularni bir-birlariga bog'lab turuvchi botiniy robita g'oyat mustahkam edi. Belorussiyadagi lagerda bo'layotgan gaplarni Moskvadagi generallardan avval Vorkutadagi mahbuslar eshitishardi. «Lager teletaypi» deb nomlanuvchi xabar xizmati bexato ishlardi. Generallar botiniy zanjir mavjudligini, uning har bir hal-qasini bilishsa-da, o'zlarini bilmaganga olishardi. Halqalarni uzib tashlash qo'llaridan kelsa-da, botina olishmas edi. Zero, ta'bir joiz bo'lsa, o'zlari ham shu zanjirning bir halqasi edilar.

Tartib etilgan qoidalarga ko'ra, «lager teletaypi» Murikning bu tomonlarga kelishini o'n besh kun avval ma'lum qilgan edi.

Daraxt kesiladigan joy o'zgarib, daryo sohildagi chayla ham ko'chirilgan edi. Quyosh yoz fasliga xiyonat qilib, kuzning zaharli nafasi hukmini o'tkaza boshlagani uchun

chaylaga joylashgan «politbyuro»ning «shtab-kvartira»si barakka ko'chirilgan edi. Bu yerlarning betayin havosi o'zini namoyish etgan — ezib yoqqan yomg'irdan so'ng oz fursat yuz ochuvchi oftob badanga harorat berishga ulgura olmas ham edi. Mahbuslarni qiyratib tashlagan chivinlar kelgusi yozda uchrashish umidida issiq uyalariga kirib ketganlar. Chivinlar azobidan qutulgan mahbuslar uchun shu shilta ayozli mavsum a'loroq tuyular edi.

Egniga paxtali kalta to'n, boshiga telpakni qiyshaytirib kiyib olgan Tengiz nam tortgan xashak ustida uzala tushib yotganicha pinakka ketgan edi. Pachoqburun kirib, uning oromini buzdi.

— Nima deysan?— Tengiz esnab, qaddini ko'tardi.

— Naxodkadan ksiva bor.

— O'qi, kimdan ekan?

— Garbuzdan.

— Garbuz? — Tengiz «kim ekan u?» deb o'yladi. Har qancha tirishsa ham Garbuzning kim ekanini eslay olmadi. Uning xotirasi yaxshi edi. Bir ko'rgan odamini, bir marta eshitgan ismni o'n yildan keyin ham qiynalmay eslardi. Leningradda o'qib yurgan kezlari u boshqa talabalar kabi daftar tutmas edi, mual-limlarning ma'ruzalarini yozmas edi, xotirasida saqlab qolardi. «Mening darsimni mensimaysan», deb da'vo qilgan muallimga Leninning «Falsafa daftari»dan bir necha sahifani yoddan aytib bergach, do'stlari uni «tirik kompyuter» deb atay boshlagan edilar. Ana shunday mukammal xotira egasi Garbuzni eslay olmadi. Pachoqburun xatni o'qiy boshlagach, masala oydinlashdi. Pachoqburunning faqat burni emas, bilimi ham pachoqqina edi. Beshinchi sinfda ikki yil sabot bilan o'qigach, oltinchi sinfga bormay qo'ya qolgandi. Rus alifbosidagi o'ttiz uch harfning teng yarmidan ko'prog'ini, ya'ni naq o'n yetti harfni erkin o'qiy olish martabasiga yetgan bu «donish»ning o'ziga o'xshash bir o'g'ri qo'li bilan yozilgan maktubni hijjalab o'qishini tasavvur qiling-u, Tengizning chidamiga qoyil qolavering. Ammo Tengiz ham temirdan emas. Uch-to'rt jumla o'qilguncha chidadi, so'ng xatni Pachoqburunning qo'lidan yulqib oldi. Katak daftar sahifasining bir burchi yirtilib, Pachoqburunning barmoqlari orasida qoldi. Xatga ko'z yugurtirgan Tengizning yuragi battar siqildi. Bu odam qo'li bilan yozilgan xatmi yoki siyohga botirib qog'oz ustiga qo'yib yuborilgan o'rmon chumolisining izlarimi, buni eskpert aniqlab bermasa, oddiy odamning farqlashi qiyin edi. Tengiz unda-bunda harfni eslatuvchi belgilarni qo'shib, bir amallab o'qiy boshladi:

«O'g'rilar omon bo'lsin!

Salom, Tengiz, salom qorindoshim! Senga yetib ma'lum bo'lsinkim, bu men — Oleg «Garbuz»man. Senga va Irkutsk tsentralidagi barcha o'g'rilarga, «politbyuro» a'zolariga, sizlarning yelkadoshlarigizga birodarlik salomlarim bo'lsin! Qimmatbaho salomatliklar qalay? Xudo barchalaringizga uzoq yillar omonlik bersin.

Qorindoshlar, jondosh o'g'rilar, bizning Naxodkada mendan tashqari Valdemar «Olov», Boris «Shimol» ham bor. Biz uch o'g'rimiz, ammo haligacha birontamiz toj kiyish baxtiga muyassar bo'lmaganmiz. Malyavamning dastlabki satrlaridayoq o'z murodu maqsadimni bayon qila qolay: men siz mehribon o'g'rilarning biringizga uka, biringizga do'st, ulug'larga esa o'g'il yoki jiyan bo'lib, mo'tabar o'g'rilar oilasining teng a'zosi sifatida qatorlaringizga kirmoqlikni orzu qilyapman. Men bundan buyongi hayotimni o'g'rilik mehrobiga atadim. Bundan buyon siz mehribon zotlar bilan yelkama yelka turib, barcha dardu alamlarni birga totmoqqa, teng baham ko'rmoqqa qaror qildim.

Qadrdonim Tengiz! Men qamoqda hali ko'p o'tiraman. O'g'rilarning muqaddas oilasiga a'zo bo'lsam, «qonundagi o'g'ri» tojiga lozim ko'rilsam, balki qolgan umrimni ham

qamoqda o'tkazarman. Bu masalada sizlar nima iroda qilsangiz, shu bo'ladi. Men ozodlikda yurganimda sizlar haqingizda ko'p eshitganman. Sizlar tomonga intilganman. Biroq, sizlar bilan yuzma-yuz uchrashish baxti menga nasib etmadi. Xatimni o'qib bo'lgach, barcha kamchiligu gunohlarimni yozib yuborarsizlar. Sizlarning ko'rsatmalaringizga amal qilib, bundan keyingi hayotim masalalarini o'g'rilar qoidasiga xilof qilmagan holda yechib borayin. Men qanday og'ir kunlarda sizlarni bezovta qilayotganimni bilib turibman. Iltimosim qabul qilingan taqdirda ro'paramda qanday mashaqqatlar turganini ham his etyapman. Bu satrlarni yozish ham menga oson bo'lmadi. Bu xat o'zimning hayotim xususidagi bir hukmdir. So'nggi nafasimga qadar o'g'rilarning ulug' oilasiga sodiq qul bo'lib xizmat qilaman. Agar u dunyoda ham o'g'rilik hayotini davom ettirish lozim bo'lsa, u dunyoda ham faqat o'g'rilar oilasiga qulman.

Aziz va qondosh o'g'rilar! Endi o'zim haqimdagi ma'lumotni yozay: men tulalikman. Birinchi marta 1978 yil 2 mart kuni mashina o'g'irlash paytida qo'lga tushib, olti yilga qamaldim. Bir yildan so'ng o'smirlar qamoq lageridan kattalarnikiga o'tdim. Ikki yil Yaroslavl'da o'tirdim. So'ng «Etap» bilan Lvovga yuborildim. Zekvagonda Seryoja «Oqqush» bilan tanishdim. U menga ko'p narsalarni o'rgatdi. Lvovda ekanimda o'g'rilar qurultoyi bo'ldi. Sakson to'rtinchi yilda ozodlikka chiqdim. O'n besh kundan so'ng 212-moddaning uchinchi bandi bilan yana besh yil berishdi. Hali Tuladagi qamoqda ekanimda o'g'rilarning qurultoyi bo'ldi. Vitya «Kalina», Sulton Chechen bilan shunda tanishdim. (Sultonni Xudo rahmat qilsin, yotgan yeri momiq bo'lsin!) Sulton meni lagerdagi tartibga boshliq qilib ketdi. Ko'p o'tmay promzona komendanti o'ldirilib, hamma yoq ag'dar-to'ntar bo'ldi. Komendant zonada qanjiq-musorlarning qurultoyini o'tkazmoqchi edi. Mening bo'ynimga hech nima ilisha olmadi. Ammo Tverga borgach, yana bir yarim yilni bo'ynimga ilishdi. Bu yerda boshqa o'g'rilar bo'lmagani sababli sizlarning birodaringiz Ostap «Janjal» bu yerdagi tartib-intizomni boshqarishni menga topshirdi. Bu ishonch men uchun katta baxt edi!

Uchinchi marta bankka hujum qilganimda qo'lga tushib, mana shu yerda o'tiribman.

Iltimosimga javobni sabrsizlik bilan kutaman.

Siz — eng mehribon, eng halol o'g'rilarga mustahkam sog'liq va ozodlik tilayman.

Siz ulug' zotlarni g'oyibona bir-bir bag'riga bosuvchi tulalik Oleg «Garbuz». 26.08.1988. Naxodka.»

Tengiz xatni o'qib bo'lgunicha ko'zlari tinib, gardanida og'riq paydo bo'ldi. Avval mijjalarini yengil uqalab, so'ng gardanini siladi. «Bitxat bo'lsa ham gaplarni topib yozarkan. Agar o'zining kallasidan chiqarib yozgan bo'lsa, ahmoqqa o'xshamaydi, — deb o'yladi Tengiz. — Lekin... Nima uchun shu paytgacha u haqda eshitmagan ekanman?» Tengiz shu xayol bilan Pachoqburunga qaradi. U buyruqqa mahtal holda somelik ila turardi.

— «Politbyuro»ni to'pla.

E'tiborli o'g'rilarni yarim soat ichida to'plab kelish uchun Pachoqburunga shu qisqa buyruqning o'zi kifoya qildi.

«Politbyuro» deganlari tojdor o'g'rilardan iborat kengash edi. Garchi Tengizning obro'yi qamoq lageri boshlig'idan ham balandroq bo'lsa-da, ayrim masalalarda bu kengash hukmiga xilof ish ko'rishga huquqi yo'q edi.

Bifshteks o'ldirilganidan beri «politbyuro» yig'ilmagan edi. Ha, o'shanda Tengiz bir adashdi. U aslida Nuriddinning adabini berib qo'ymoqchi edi, so'ng o'zi tomon og'dirmoqchi edi. Hirsday Bifshteksning bir tepki bilan o'lib qolishi xayoliga ham kelmagan edi.

Lagerda Bifshteksning «qochgani» haqida xabar tar-qalishi bilan Valera «Qo'tos» deb laqab olgan «politbyuro oqsoqoli» Tengizni chaqirtirdi. Qo'tos qolgan umrini qamoq

lageriga bag'ishlagan o'g'rilardan edi. U ozodlikka chiqishni istamasdi. Qamoq muddati nihoyasiga yetay deganda bir qiliq chiqarardi-yu, o'zining ta'biri bilan aytilganda, «kurort mavsumi cho'zilardi». Uning asosiy vazifasi — kelajakda ulug' o'g'ri bo'lib yetishishi mumkin bo'lgan yigitlarni aniqlab, tarbiyalash edi. Shu jihatdan qaralganda Nuriddinning tarbiyasi bilan avval «Qo'tos» shug'ullanishi lozim edi.

Qo'tosning yo'qlovi Tengiz uchun kutilmagan bo'lmadi. Bugunmi-ertami baribir ro'para bo'lishini bilib, javoblarni tayyorlab qo'ygan edi. Ammo Qo'tosning belgilangan barakda yakka o'zi emas, «politbyuro» a'zolari bilan birgalikda kutib olgani Tengiz uchun kutilmagan hol bo'ldi. Xayoliga «nima bu, to'ntarishmi?» degan fikr chaqmoq nuriday urildi-yu, o'sha zahoti so'ndi. Chunki Tengiz shunday bo'lgan taqdirda ham og'ir ahvolda qolmasligini bilardi. Bunga o'xshash isyonlarning hisob-kitobini qilib qo'ygani uchun xotirjamligini yo'qotmadi.

Qofqazlik tojdor o'g'rilar bilan hazillashib bo'l-masligini bilgan «politbyuro» a'zolarida Tengizga qarshi bir ish yuritish fikri yo'q edi. Ular faqat Bifshteks taqdirini oydinlashtirib olmoqchi edilar.

Tengiz ostona hatlashi bilan Qo'tos o'rnidan turdi-da, unga peshvoz chiqdi.

— Knyaz, sen xafa bo'lma, favqulodda hol bizni to'planishga majbur etdi, — dedi u, Tengizga qo'l uzatib.

Qofqazlik tojdor o'g'rilar o'zlarining kelib chiqishlarini mashhur knyazlarga bog'laganliklari uchun asosiy laqablari qolib, hurmat yuzasidan ularga «knyaz» deb murojaat qilish o'g'rilar olamida odat tusiga kirgan edi. Bu odat barcha «knyaz»lar qatorida Tengizga ham yo'qar edi. Yetti pushti oliymaqom xonadonga yo'lamasa ham u o'zini chinakam knyaz his qilardi. Qo'tosning «knyaz» deb murojaat qilishi esa vaziyatning aytarli keskin emasligiga dalolat edi.

Tengiz yig'ilganlar bilan birma-bir ko'rishgach, to'rga o'tdi. Qo'tos uning yoniga o'tirdi. Tengiz sigaret tutatgach, Qo'tosga yuzlandi:

— Nima bo'ldi?

— Bizni Bifshteks qiziqtiriyapti. U hamisha sening yoningda bo'lardi?

— Ha, bo'lardi, — dedi Tengiz xotirjam ravishda. So'ng xuddi oddiy bir xabarni eslaganday qo'shib qo'ydi: — O'lmasidan ilgari...

— O'ldimi? — Qo'tos ajablanib, to'planganlarga qarab oldi. Ular ham hayratlarini yashirmay Tengizga tikilishdi. Lager hayotida birovni o'ldirish, yoki itday o'lib ketish aytarli ajablanarli hol emas. Tojdor o'g'rilarni hayratga solgan narsa — yaqin odamlarining o'limi tafsilotidan vaqtida xabar topmaganlarida edi. Agar sheriklariga bu olamga begona kimsa qasd qilgan bo'lsa, kechiktirmay jazolashlari shart. Tengiz ularning bu fikrini ham uqsa-da, javobga shoshilmadi. Sigaretni yana ikki-uch, chuqur-chuqur tortib, nafsini orom toptirgandan keyingina javob berdi:

— Ha, o'ldi. Bir mishiqlini eplay olmadi. Adabini berib qo'y, devdim, bir tepkini ko'tara olmay o'ldi. Bola balo ekan.

— Kim? Sen uni o'ldirdingmi? — Bu safar Qo'tosning ovozida tahdid sezildi.

— Ayb u bolada emas.

— Kimligini ayt bizga!

— Bilishga qiziqayotgan bo'lsalaring aytaman: «Eshshak», Bublikka egilmagan bola.

— Uni menga qo'yib berishing kerak edi?

— Bo'lar ish bo'ldi endi. Men sinab qo'rdim — mard bola ekan. Yaxshilab tarbiya qilsang zo'r o'g'ri chiqadi undan. Ammo u endi u «esh-shak» emas, nomi «Hamzat» bo'ladi.

— Nega?

— Men shuni xohladim.

— Knyaz, sen haddingdan oshma! — Ukraina tomonlarda «Koshak» nomi bilan mashhur boʻlgan oʻgʻri Tengizning soʻzini dagʻallik bilan uzdi: — Sen musulmongni himoya qilib, zoʻr yigitni oʻldirtirib yubording!

Tengiz sigaretini tutatib, unga tutun orasidan koʻzini sal qisibroq qaradi:

— Koshak, bilmasang bilib qoʻy: mening dinim ham, millatim ham — oʻgʻri! Qoʻtos, sen bunga tushuntirib qoʻy. — Tengiz shunday deb oʻrnidan turdi. Ostonaga yetganida toʻxtab, orqasiga oʻgirildi. — Koshak, bilib qoʻy, bu olamda faqat bittagina oʻgʻri degan millat bor. Bu millat oldida boshqalari sariq chaqa. Agar shunga aqling yetmasa, sen oʻgʻri emassan, mujiksan! — Tengiz eshikni bir tepib ochdi-da, tashqariga chiqdi. Uch-toʻrt qadam yurib, toʻxtadi. Uning fikricha, hozir ortidan Qoʻtos chiqib kelishi lozim edi — yanglishmadi.

— Knyaz, sen xafa boʻlma. Koshakka yetadigan ahmoq bu dunyoda kam topiladi. Ahmoqona gaplarni koʻp gapiradi-yu, ammo yuragi toza bola. Koʻnglida kiri yoʻq. Sening nima uchun achchiqlanganingni tushunmay oʻtiribdi, u ahmoq! Tushunganidan soʻng oʻzi kelib sendan kechirim soʻraydi.

— Xafa emasman,— Tengiz shunday deb jilmaydi,— oilamizga bir-ikkita shunaqa dovdur ham kerak. Boʻlmasa, yashashning qizigʻi qolmaydi.

— Toʻgʻri aytasan. Unga shu yerlarda chidash mumkin. Ozodlikda bunga sherik boʻlganning shoʻri quriydi.

Qoʻtos toʻgʻri aytgan edi — Koshak ikki kundan soʻng Tengizdan uzr soʻradi. Oʻzining ham dunyoda yagona OʻGʻRI millatidan ekanini bayon qildi.

Ana oʻsha voqeadan beri «politbyuro» endi rasmiy kengashga chorlangan edi. Oleg «Garbuz»ning iltimosnomasini oʻqishdan avvalroq Tengiz, «politbyuro»ni chaqirishni reja qilib qoʻygan edi. Kecha oqshomda qoʻliga yetib kelgan bir xabar uni «politbyuro» bilan maslahatlashishga undagan edi.

«Politbyuro» toʻplangach, Tengiz oʻtirgan yerida ularga bir-bir qarab chiqdi.

— Knyazlarim, — garchi qofqazliklardan boshqalar bu nomga daʼvo qilmasalar-da, Tengiz ularga boʻlgan hurmatining baland ekanini bildirib qoʻyish uchun gapini shunday boshladi, — knyazlarim, bugun biz ikki muhim masalada yagona qarorga kelishimiz kerak.

Tengiz birinchi masala deb Oleg «Garbuz» iltimosini bayon qildi. U gapini tugatmayoq Koshak eʼtiroz bildirdi:

— Onasi oʻn marta qayta tugʻsa ham undan oʻgʻri chiqmaydi, — dedi u stolga kafti bilan urib-urib qoʻyib. — Kozel u! Boshqa gap yoʻq! Tulada nima uchun suvdan quruq chiqqan? Kozel edi! Promzona komendantini bizning odam edi. Hech qanaqangi qanjiq-musorlarga aloqasi yoʻq edi.

— Aniq bilasanmi? — deb soʻradi Qoʻtos.

— Oʻshanda men Kurskda edim. Aniq bilaman.

— Men «Garbuz» deganini endi eshityapman. Kozel boʻlsa nima uchun shu paytgacha jazosiz yuribdi?

— Tutqich bermayotgandirda. Agar unga toj kiydirsak, hammamiz rasvo boʻlamiz.

— Agar kozel boʻlsa... agar ayyor boʻlsa... — Tengiz oʻylanib qoldi. — Boshqa lagerlarga ham shunaqa xat yozgandir? Tezda aniqlash kerak. Qoʻtos, oʻzing shugʻullan bu ish bilan. Agar shunday qilgan boʻlsa, boshiga toj oʻrniga sirtmoq ilish kerak. Ilganda ham pinhona emas, shov-shuv bilan osib oʻldirish kerak. Boshqa kozellar oʻzlarini nima kutayotganini bilib qoʻyishsin. Birinchi masala — tamom! Endi ikkinchisi — biz tomonlarga «Murik» kelayotgan emish, — Tengiz shunday deb oʻtirganlarga savol nazari bilan boqdi.

— Murik? Kim u? — deb soʻradi Qoʻtos.

— Bilmaysizlarmi? — Tengiz istehzoli jilma-yib, yon cho`ntagidan bir varaq qog`oz oldi.— «Cho`mich»— Slava Galiulin. MUR<sup>9</sup>ga xizmat qila boshlagani uchun laqabini o`zgartirib, «Murik» deb qo`yishibdi. Ma, o`qi, — u shunday deb, xatni Qo`tosga uzatdi.

Qo`tos maktubga ko`z yugurtirib, bosh chayqadi-da, so`ng ovoz chiqarib o`qiy boshladi:

— «Irkutsk tsentralidagi halol birodarlarimizga salomlar bo`lsin. Salom yo`llovchilar — Pskov lageridagi o`g`rilar — sizlarga omonlik tilaydilar. Qadrdon o`g`rilar, bu shoshqich xatimiz bilan sizlarni ogoh etamiz: biz bilan «Cho`mich» — Galiulin birga bo`ldi. Bilib qo`yinglarki, u bizning pok va muqaddas nomimiz — o`g`ri nomi bilan yashirinib yurgan bir qanjiqdir. Ha, bilib qo`ying, u O`G`RI emas, u qanjiqdir! O`g`ri nomiga isnod keltirgani uchun uni faqat qanjiq yoki ABLAH deb atash mumkin. O`zini hurmat qiluvchi har bir o`g`ri, har bir mahbus u bilan shu nomiga yarasha muomalada bo`lishi kerak. Shu bilan birga barcha qanjiqlari uchun jazosini olishi shart! Yana bilib qo`yinglarki, Moskvada o`g`rilar qurultoyi bo`lib o`tdi va Cho`michga nisbatan qaror qabul qilindi. Qarorga binoan, u QANJIQ deb e`lon qilindi. Moskva pupkarlariga xizmat qilgani uchun unga «MURIK» deb nom berildi. Uni qabul qilganlaringda shu qaror yoddan ko`tarilmasin.

Pskovda biz olti o`g`rimiz: Kato, Kuyov, Yo`lbars, Sibir, Avliyo va Olov barchalaringizga ozodlik tilab qoladilar».

Qo`tos o`qishni yakunlamay, Koshak stol ustiga musht urib, to`ng`illadi:

— Cho`mich kelishi bilan menga berasanlar. U bilan ozgina hisob-kitobim bor.

Bu gapni eshitib, Tengiz unga tikilib qoldi. So`ng kengash a`zolariga savol nazari bilan bir-bir qaradi:

— Xo`sh, Murikni Koshakka beramizmi? — Tengiz shu savolni o`rtaga tashlab, sukut qildi. O`tirganlardan sado chiqmagach, davom qildi: — Biz o`g`rilarning bir ahmaqligimiz bor. Faqat o`zimizning hisob-kitobimiz bilan qiziqamiz. O`g`rilarning muqaddas olami bilan esa, ishimiz yo`q. Oilamiz qanjiqlar bilan to`lib ketyaptimi, irib ketyaptimi, sasib ketyaptimi — ishimiz yo`q. Xo`sh, Koshak, Murik seniki. Nima qilasan, o`ldirasanmi?

— Qiynab o`ldiraman.

— Ana shu-da! Nima uchun qanjiqlik qilgan, nima uchun qamalib bu yoqlarga yuborildi? Bilish kerakmi? Gap shu: Murik kelaversin. Yuraversin. Biz esa, go`yo hech nima bilmaymiz. Biladiganimizni bilib olaylik, ana undan keyin u Koshakniki. Istasa homicha yesin, istasa pishirib yesin. Boshqa gap yo`q. Takliflaring bo`lsa aytlaring.

— Taklif bor, — dedi Koshak tirjayib. U majlis qaroridan mamnun edi, shu bois bir hazil qilgisi keldi. So`zlashga ijozat berilgach, o`rnidan turib, yoqasini tuzatgan bo`ldi: — O`rtoq kommunistlar, majlisimiz nomidan KPSS bosh kotibi Gorbachga tabrik telegrammasi yuborsak.

Bu hazil to`mtiq bolta bilan o`tin yorishni eslatsada, o`tirganlar Koshakka qarab jilmayib qo`yishdi. Tengiz ham kulimsirab, uning bu haziliga yakun yasadi:

— Yaxshi taklif. Telegramma yoz-da, yumaloq muhr o`rniga nozik yeringni bosa qol.

«Politbyuro» majlisi shu tarzda kulgu bilan yakunlandi. Oradan to`rt kun o`tib, Murik tashrif buyurdi. Unga qadar «lager teletaypi» orqali Tengiz muhim ma`lumotlar oldi.

## XIYONAT

Matluba eridan xat olib kelgan yigitga boshdan-oyoq razm soldi. Avvaliga «qamoqda birga o`tirganmikin?» deb o`yladi. Ammo xushro`y yigitning jilmayib qarashida, rangi-ro`yida qamoqning sovuq nafasidan asorat yo`q edi. Yigit «ichkariga kiring», degan taklifdan so`ng tarang qilmay, juvonga ergashdi. Tursunali qamalishidan ilgari, amal

<sup>9</sup> MUR — (Moskovskiy ugovovnyy rozysk) — Moskva jiinoyatga oid qidiruv bo`limi.



otini surib javlon urayotgan mahallarda bu uyni ko'rgan odam oradan bir yil o'tib-o'tmay yana ostonaga hatlab ichkari qadam qo'yguday bo'lsa, «yopiray, kecha o'g'ri urib ship-shiydam qilgan shekilli», deb yoqa ushlashi tayin edi. Ko'zni qamashtiruvchi gilamlar, qandillari javonlar endi yo'q. Matluba eri qamoqqa olinib, mol-mulki xatga tushguniga qadar yashirishga ulgurganini yashirdi. Qolgani esa, musodara qilindi. Uy xo'jalik ixtiyorida bo'lgani, Matlubaning o'zi shu xo'jalikda ishlayotgani uchun tortib olinmadi. Yangi direktor insof qilib, ularga «uyni bo'shat», deb tiqilinch qilmay, yangisiga joylasha qoldi.

Matluba dardini kimga aytishni bilmay, to'rt devor orasida to'rt bolasi bilan kun kechirib yurgan edi. Davlat boylikni tortib olgani bilan Xudo bolalarning rizqini qiymas ekan. Gilamsiz, billur qandilsiz uyda ham yashash mumkin ekan. Dunyoda tirik beva faqat u emas ekan. Tirik yetimlar ham ko'p ekan. Eri qamalgan xotinning joni chiqib keta qolmas ekan. Otasi qamalgan bolalar taqdiriga tan berib yashayverar ekan, ulg'ayaverar ekan...

Qamoq — jinoyatchi uchun jazo. Bu dunyoda jinoyatga dahli yo'q odamlar uchun ham jazo bor ekan. Balki harom luqмага sherik bo'lgani uchun bunday jazo joizdir? Matluba buni bilmaydi. Bu haqda o'ylab ham ko'rmagan. Bunga keyinroq aqli yetadi. Hozir bilgani — qo'lidagi xatda yozilgan gaplar... Ya'ni har oyda «solliq» to'lab turish.

Matluba xatni to'rt marta o'qib chiqsa ham tushunmadi. Yigitga savol nazari bilan tikilib qoldi.

— Cheksam maylimi? — deb so'radi yigit hotirjam ravishda. U juvonning hayrat iskanjasida ekanini bilib tursa-da, parvo qilmadi. Uy bekasi bosh irg'ab «chekavering» degach, labiga sigaret qistirdi. Ammo o't oldirmay turib so'radi: — Tinchlikmi? Nima deb yozibdilar?

— Nima deb yozilganni... bilmaysizmi?

— Men birovning xatini o'qimayman, — yigit shunday deb sigaretini tutatdi.

— Xatni o'z qo'llari bilan yozib sizga berdilarmi?

— Yo'q. Menga birodarlarim keltirishdi. Men eringizni tanimayman. Mening vazifam — xolis xizmat.

— Soliqni... sizga to'laymanmi?

— Ha, soliqnimi? — Yigit jilmaydi. — Hozircha menga. Men kelolmasam boshqa odamni yuborishadi.

— Yuborishadi? Kim yuboradi?

— Buni bilishingiz shart emas.

— Men... tushunolmayapman?

— Tushunolmayapman? Mayli, yaxshi xotinga o'xshaysiz, sizga tushuntirib bera qolay: sizga er kerakmi? Ha, albatta kerak. Sizga er kerak bo'lmasa ham bolalaringizga ota kerak. Demak, u qamoqdan sog'-salomat qaytishi shart. Qamoqda esa, opaginam, ko'p odamlar bekordan bekorga o'lib ketadi. Birovlar bitta kichkinagina toshga qoqilib ham o'lib ketar ekan. Baxtsiz hodisalar ko'p-da. Qamoqdagi birodarlarimiz eringizni himoya qilishadi. Uning bitta tuki ham bekorga to'kilmaydi. Siz «solliq» deyapsiz-u, aslida unday emas. Bu xizmat haqi. Hukumat qorovullarga ham maosh to'laydiku, to'g'rimi? Ana, siz ham shunaqa to'laysiz-da.

— Qanchadan to'layman?

Yigit darrov javob bermadi. Tutatib bo'lgach, kuldon o'rniga qo'yilgan likopchaga sigaret qoldig'ini bosib ezdi-da, to'lanajak xizmat haqi miqdorini aytdi. Buni eshitib, Matluba bir seskandi. «Xato eshitmadimmi?» deb, so'radi:

— Bir yilgami?

— Eringizning jonini hurmat qilmas ekansiz, opaginam. Har oyda to'laysiz. Balki uch oyligini, balki yarim yilligini qo'shib oldindan to'larsiz. Oldindan to'lasangiz, bir oz kamaytiramiz, buni o'zaro kelishib olamiz.

— Menda buncha pul yo'q... Topganim bolalarim...

— Opaginam, siz topgan pulingizni bolalaringizga ishlatavering. Siz bizga eringizdan qolganidan cho'tal berib tursangiz yetadi.

— Erimdan... hech narsa qolmagan... Bori shu — ko'rib turganingiz. Davlat hammasini tortib oldi.

— Davlatga tuhmat qilmang. Bizning davlat, opaginam, odil davlat! Bilmasangiz bilib oling. Hech qachon hammasini tortib olmaydi. U-buni yashirib olishga imkon beradi. To'rtta bolangiz bor, a?

— Ha... — Matlubaning ko'ngliga yomon fikr kelib, qo'rqib ketdi: — Nimaga so'rayapsiz?

— Shunchaki qiziqdim. Ular ham otalari qaytgunicha sog'-salomat yurishlari shart. Ota qamoqdan qayt-sa-yu...

— Bolalarimga tegmang! — Matluba beixtiyor shunday deb baqirib yubordi. Mushtlari o'z-o'zidan tugildi.

— Opaginam, o'zingizni bosing. Bizlar odamxo'r emasmiz. Biz siz bergan xizmat haqi evaziga o'zingizni ham, bolalaringizni ham himoya qilamiz. Pul ketsa ketsin, jon ketmasin. Mening yana yarim soat vaqtim bor. Birinchi xizmat haqini bugun olib ketishim kerak.

— Hozir yo'q menda bunaqa pul.

— Sizdan hoziroq talab qilayotganim yo'q. Yarim soat vaqtim bor, deya pman-ku? Bo'la qoling, qimirlang.

Bu gapdan keyin ham Matluba bir necha daqiqa harakatsiz turdi. Yigit esa, boshqa gapga hojat yo'q, deganday indamasdan o'tiraverdi. Matluba «Yarim soat vaqti bo'lsa ko'chaga chiqib, mashinasida o'tira qolmaydimi?» degan fikrda unga qarab-qarab qo'ydi.

U «uyda pulim yo'q» deb yolg'on so'zlagan edi. Aslida esa, «biror kunimga asqotar» degan umidda yashirib qo'ygani bor edi. Ammo bu yigit shunday yalpayib o'tiraversa, u qanday qilib oladi? Undan tashqari bu yigitning aytganlari shunchaki po'pisami yo jiddiy-mi — hali to'la farqiga borolgani yo'q. Dastlab bu yigit ko'ziga hushro'y ko'rinib edi. Endigi o'tirishi esa... «He, go'laymay o'!» deb ichida qarg'adi.

— Yarim soat... Birovdan so'rab topgunimcha... Bir-ikki kundan keyin kelsangiz... topib qo'yardim.

— Kelib-ketish oson ekanmi? Men ammingizning qishlog'idan kelganim yo'q. Xo'p, mayli, bir-ikki kundan keyin men kelmayman. O'zingiz borasiz.

— O'zim boraman? Qayoqqa?

— Bahonada adangizni ko'rib kelarsiz?

— Adamni... bilasizmi?

Yigit istehzo bilan kuldi.

— Laqma xotin ekansiz. Uyingizni to'g'ri topib kelgan odam adangizning ikki yildan beri palaj bo'lib yotganini bilmaydimi? Xullas, ikki kundan ke-yin adangiznikida ko'rishamiz. Ismim Xursanali, siz ishlayotgan sovxozning hisobchisiman. Tushundingizmi? Bizning siz bilan bo'ladigan hisob-kitobimizni birov bilmasa faqat o'zingizga foyda. Milisadan umid qilmang. Milisa sizga emas, bizga xizmat qiladi. Biz sizga o'xshaganlardan xizmat haqi to'plab, hatto o'sha Maskovdagi generallargacha boqamiz. Shuni unutmasangiz bo'lgani. Siz bilan biz endi begona emasmiz. Ha, aytmoqchi, bizda «bir-ikki kun sabr qiling», degan gap bo'lmaydi. Bir safar mayli, kechiraman. Bundan keyin har bir kun uchun yuz qo'shiladi. Aql bilan ish yuritsangiz

hamyoningiz zarar ko'rmaydi. Eringiz unda tinch, siz bunda bola-chaqalaringiz bilan tinchsiz. Xudo beraman, desa shu-da!

Yigit o'rnidan turib, eshik sari yurdi. Ostonaga yetgach, orqasiga o'girildi:

— Mehmondo'st emas ekansiz. Mayli, xafa bo'lmayman. Osh-choyga qarzdorsiz, unutmang, — o'zini Xursanali deb atagan yigit bir jilmayib qo'ygach, tashqariga chiqdi.

Matluba unga xayr ham demadi, kuzatish uchun ostona ham hatlamadi.

Yigitning huddi balo chaqiniday kelib-ketishi uning xushini oldi. «Tursunali akamdan xat olib keldim», deb jilmayganida istaraligina bo'lib ko'ringan edi. «Osh-choyga qarzdorsiz», deb chiqayotganida ko'ziga isqirt bir sulloh bo'lib ko'rindi. «Kim o'zi bu? — deb o'yladi Matluba. — O'g'ri desam, o'g'riga o'xshamaydi. Basharasi bip-binoyi. Balki cho'ntakkesardir yo kallakesarmikin? Unaqaga ham o'xshamaydi. Yo adasi meni sinab ko'rmoqchi bo'lib biror tanishini ishga soldimikan? E, yo'q. Shunaqasiga sinaydimi? Sinagisi kelsa, «menga vafo qiladimi-yo'qmi?» deb sinar. O'ziga o'xshagan bironta shilqimni yuborar. Menga ilmoq tashlatib ko'rar... E yo'q... Qorang o'chgur Nafisasi bilan sharmandasi chiqqanidan keyin mendan vafo talab qilib go'rga borsinmi?..»

Nafisaning nomi esiga tushib, battar tutoqib ketdi. Stol ustida turgan piyolani olib devorga qarata otdi. Piyola devorga tegib ham, taxta ustiga tushib ham sinmadi.

— Hu ko'zlaring go'rda chirisin!

Bu qarg'ishni ovoz chiqarib aytdi. Nazarida Nafisa ishvali ko'zlarini suzib qarab turganday bo'ldi. Bir qarg'ish bilan yuragidagi dard ko'tarilmay, ikkinchisini aytdi:

— Aft-basharang go'rda ilon-chiyonlarga yem bo'lmasa, rozi emasman!

O, ayol qalbi! Dunyoda mavjud barcha fojialar sel bo'lib yopirilsa chidar-u, ammo erining xiyonatiga sira-sira chiday olmas! Ayniqsa, bu xiyonat o'z uyida, o'z to'shagida sodir etilsa, yurakda yona boshlagan olovni hech nima o'chira olmas.

Erining xiyonatkor buzuq ekani Matlubaga ko'pdan ma'lum edi. Hali bu «qorang o'chgur Nafisa» paydo bo'lmayoq, bir unga, bir bunga sho'ng'ib yurishidan gumon qilardi. Gumoni isbot topganida janjal ko'taraman, dedi-yu, eplay olmadi. «Chidasang shu, — dedi eri. — Men senga yalinib uylanmaganman, o'zing xushtor bo'lib tekkansan. Men bitta xotinga qanoat qiladigan erkaklardan emasman. Ko'ngling sovugan bo'lsa, ana, orani ochiq qilginu otangnikiga jo'nayver. raykomga dodvoy deb borasanmi, undan narigami, menga baribir. Mendan olsa amalini oladi. Sen esa, erdan ayrilasan. Ikkita bola bilan seni birov olarmikan? Menga tegishda otangning roziligini olmagansan. Ketsang, otangnikiga ham sig'maysan. Undan ko'ra nafasingni chiqarmay yashayver... Sen xotinimsan. Ular bir o'ynash. Sen bilan ular orasida katta farq bor. Shuni tushunsang bo'ldi».

Eri haq gapni aytgan edi.

Matlubaning Tursunaliga oshiq bo'lgani rost. Xatlar yozgani, she'rlar to'qigani ham rost. Kelishgan, chiroyli yigitni undan boshqalar ham yaxshi ko'rishar edi. Yigit chiroyli bo'lsa, ustiga ustak amaldor otasi cho'ntagidagi pulni aritmay tursa, xushtorlar sanog'iga yetish mushkul. Ammo Matlubaning yuragidagi olov hammanikidan kuchliroq edi. Keyin-keyin Matluba o'sha damlarni eslaganidan «yuragim yonmay, chiribgina ketsa bo'lmasmidi, uni yaxshi ko'rmay o'lib qo'ya qolsam ming marta yaxshi edi-ya!» deydi bo'ldi.

Taqdir qalami yozug'ini yozib bo'lganidan keyin bunday nadomatlardan ne foyda? O'sha kezlari Odam ato bilan Momo Havoning nima sababdan jannatdan haydalganlarini bilsami edi, es-hushini sal yig'ishtirib olarmidi...

Oldingilari, eri aytganiday, nafs balosini qondiruvchi vaqtinchalik o'ynashlar ekan. Eri ularga qattiq bog'lanmagan edi. «G'ariko'zing go'rda chirigur Nafisa» yomon chiqdi. Erini o'ziga tamomila qaram qilib oldi. Eri avvallari o'ynashga borgani bilan uni unutmadi,

ko'nglini ovlab turardi. Erining xiyonatkorligi oshkor bo'lganidan keyin ham Matluba ikki farzand ko'rdi. Ammo «juvonmarg bo'lgur Nafisa»ga ilakishgach, er ekani tamoman esidan chiqdi. Matlubaning o'rindagi noz-karashmalariga ham e'tibor bermay qo'ydi. Bir kuni «yoshingga qarab qiliq qil», deb o'rnidan turib ketgach, Matluba tirik beva bo'lib qolganini angladi.

«Yoshingga qarab qiliq qil...» O'shanda Matluba hali o'ttiz uchga kirmagan edi... Hozir qirqning ostonasida. O'shandan beri er nimaligini unutayozgan.

Dardi zo'r... Ammo dardkashi yo'q... Dardi ichida.

Faqat bir marta «portladi». Portlamasa bo'lmas edi...

Shaharga borishi lozim edi. Biroq oyog'i tortmay ko'ngli xijil bo'lib rayon markazidanoq iziga qaytdi. Qarasa-ki, kuppa-kunduzi eri «qon qusgur Nafisa» bilan bi-ir ahvolda... bolalar maktabdan kelib qoladi, deb xavotir ham olishmabdi...

Matluba hali-hali tushunmaydi: sovxozning nomi «mehmonxona», aslida esa fohishaxona vazifasini bajaruvchi joyi bor. Eri nima noma'qul narsa yesa, o'sha yerda yerd. Uyga olib kelgani nimasi u yuviqsizni?! Eri janjallashib o'tirmadi. Nafisani yuldirishga ham qo'ymadi. «Uningni o'chir», dediyu o'ynashini olib chiqib ketdi.

Matluba esa... o'ylay-o'ylay, axiyri ular yotgan o'rin-to'shakni hovli o'rtasiga uyib, yoqdi. Bu bilan ham hovuri bosilmagach, karavotni ham yoqdi.

Bolalar ko'rquvda jovdirashadi.

Qo'shnilar hayron...

Faqat Tursunali hayron bo'lmadi. Ertasiga yugurdaklari yuk mashinasida yap-yangi karavot tashlab ketishdi.

Haromdan qaytmaydigan ana shu er qamalib, peshonasi devorga tekkach, ko'zi ochilganmikin? Oiladan ko'ra o'ynashning karashmasini afzal bilgan er «xotinim menga vafo qilyaptimi?» deb o'ylayaptimikin? Shunday deb o'ylashga haqqi bormi?

Vafo qilmaydigan xotin erining qamalib ketishini kutib o'tirar ekanmi? Erining buzuqlik daryosiga sho'ng'iganini bilgani hamon bu daryoga o'zini otmasmidi?

Xatida «vafodorim» debdi...

Vafodorim?

Matlubaning xayoliga bir fikr urilib, changalida g'ijimlanib turgan qog'ozni shoshib tekisladi:

«Ha, «vafodorim» debdi. Qiziq, ismimni yozmabdi. Menga hech bunday demagan. Yaxshi kunlarda ham demagan. Anavi yer yetkurni aytgan bo'lishi mumkin. To'xta, to'xta... Balki bu xat o'shanga yozilgandir. U haromi esa, menga jo'natgan bo'lsa-chi? Boyagi turqi sovuq uning xushtoridir balki?..»

Shunga o'xshash fikrlar quyilib kelaverib, Matlubaning boshi og'riqdan zirillay boshladi. So'ng shu og'riq bahona bo'lib, ho'ngrab yig'lab yubordi. U erini hibsga olishganda ham, sud hukmi o'qilganda ham yig'lamagan edi. To'g'ri, yuragi yomon uvishib edi. Ammo do'st-dushman uning ko'zlarida nam ko'rmagan edi. Birov «dushmanlar oldida past ketmadi, yig'lamagani yaxshi bo'ldi», desa, boshqalar «buncha bez ekan bu xotin? Hech bo'lmasa kiprigini tupugi bilan ho'llasa-chi, endi erini yana ko'radimi yo'qmi?» deyishgan edi.

Yuragi faryod chekmasa, ko'zlariga yosh kelmasa, nima qilsin? Yig'ining fursati shu kunga belgilangan ekan, astoydil yig'lash uchun erning qamalishi bahona bo'lolmas ekan, xotin kishi o'zining xorlanganini his qilsa, bas ekan. Ayni damda Matluba xorlanish kuyining avj pardaga ko'tarilganini fahmladi. Daqiqalar o'tgani sayin u «maktub» ko'zginang teshilgur Nafisa»ga yo'llangan-u, u juvonmarg makr ishlatib, xushtorini bu yoqqa jo'natgan», degan fikriga astoydil ishona boshladi. Bu fikr tez orada mutlaq hokimlik shoh-supasini egallab, qolgan barcha xayollarni quva ket-di.

Yagona fikrga mahkum bo'lgach, bu zug'umdan qutulish, qutulishgina emas, qarshi hujumga o'tib, g'animini yakson qilish choralari izlay boshladi. Donishmand ahlining «johilga hilm ila munosabatda bo'l», degan nasihatlariga erkaklar amal qilardilar-u, biroq o'ch olish qasdida yonayotgan ayol ikki dunyoda quloq solmas. Bu sohada ayollarning yagona shiori — «makrga makr qilichi bilan hamla qilmoq kerak!»

Alam o'tida yonayotgan Matluba makr bobida kundoshidan orqada ekanini tan oldi. Birovning erini o'ziga rom qilgan makkoraga pul undirib olish qiyin ish ekanmi? Matluba «uying kuygur Nafisa» ishlatgan yoki reja qilayotgan xiylalar haqida o'ylay boshladi.

Qamoqda erining Tengiz ismli o'g'riboshiga yo'liqqanini u bechora qaydan bilsin? Yaxshiki u kundoshining ko'z ochib ko'rganini sog'inib Sibirga o'tlanayotganini, erini laqillatib ketish uchun bahona axtarayotganini bilmaydi. Bilsami, hozirgi ahvolini tutash desak, gurillab yona boshlashning qanday bo'lishini tasavvur qilavering. Yaxshiki, Tangri bandalarini ko'p narsalardan bexabar qilib yaratgan. Aksi bo'lgandamidi edi, dunyo xotinlarning g'alvasidan bo'shamay qolarmidi, vallohi a'lam!

Matluba og'riq zo'ridanmi yo qorong'u xaltako'chada milt etgan nur topolmay gangib ezilganidanmi, boshini changallab o'tirdi. Maktabdan qaytgan katta qizi bu ahvoldagi onasini cho'chitib yubormaslik uchun past ovozda salom berdi. Onasi alik olmagach, yelkasidan quchoqladi. Matluba uni quchib, endi unsiz faryod chekdi. Erining xurmacha qiliqlaridan bezgan damlarida ba'zan «bu dunyoda yashab nima qildim?» degan xayolga ham borardi. Ana shu badbinlik ko'chasida ivirsib qolganida Xudoning o'zi yomon yo'ldan qaytarardi — ko'ziga bolalari ko'rinardi. Uch yil muqaddam o'ngida qilolmagan ishi tushida sodir bo'ldi — o'zini yoqdi! Ana shunda bo'zlayotgan bolalarini ko'rib, o'zi ham baqirib yubordi. Bor ovozi bilan baqirgani uchun o'zining ovozidan qo'rqib uyg'onib ketdi. O'shanda to'ng'ich qizi ham uyg'onib, onasini quchoqlab olgan edi. Bu dunyoda uni ushlab turgan zanjir shu farzandlari. Shu topgacha otalik mehrini bermagan «zormanda er» kasriga endi bular ham azob chekishlari kerakmi?

Qizini quchoqlab o'tirgan Matluba shuni o'ylab, yuragi ezilib «bundan ko'ra otib tashlashganlari ming marta yaxshi edi», deb o'yladi. Qizi esa, onasi ma'yuslanib qolganida «adamlarni o'ylab siqilyaptilar» deb o'ylab, xafalik sababini sira so'ramasdi. O'n oltiga yetib qolgan qizi Matlubaning baxtiga g'oyat aqlli edi. U hatto ko'chada otasi haqida mish-mishlarni eshitganida ham dardini ichiga yutardi-yu, onasiga bildirmasdi. Ko'rpa-to'shaklar nima sababdan yoqilganiga fahmi yetgani uchun ham bu xonadonda yashash onasi uchun g'oyat azobli ekanini bilardi. Bilgani uchun ham onasiga suyanchiq bo'lishga intilardi. Lekin onasiga qanday suyanchiq bo'la olishiga bolalarcha aqli yetmasdi. Hozir ham onasini quchgan holda nimadir deb uni yupatgisi keldi. Ammo o'sha «nimadir»ni topolmasdi, aytolmasdi.

Qizining shu tarzda quchoqlashi ham Matluba uchun zo'r dalda edi. U chuqur nafas olib, xo'rsiniqni nari haydadi. Qizining peshonasidan o'pdi-da:

— Nasiba, jon qizim, Zilolani boqchadan vaqtliroq olib kela qol. Maydonga qarab o't: Shohruh to'p tepgani chiqib ketuvdi. Hammayog'ini rasvo qilmasin, Farruh qani, nima uchun birgalashib kelmadilaring?— dedi.

— Farruh o'rtog'idan kitob olishi kerak ekan, hozir keladi.

Nasiba shunday deb onasi buyurgan vazifani bajarish uchun chiqdi. Qizi chiqishi bilan Matluba avvalgi holatiga qaytdi. Oradan besh-olti daqiqa o'tmay, o'g'li eshikdan asta mo'raladi. Kitob-daftarini qo'yib, ko'chani mo'ljallaganida Matluba uni chaqirib, «Vali akangni chaqirib kel», deb buyurdi.

Valijon — besh uy narida turuvchi yigit. Bilganlar uni «Tursunalining mulozimi», deydi, bilmaganlar esa «direktorning shopuri» deyishadi. Kim nima desa desin, ammo Valijon xojasiga bag'oyat sodiq edi. Tursunaliga qo'shib uch kun qamab qo'yishganda

ham xojasining sirlarini ochmadi. Suddan keyin esa xotini bilan birgalikda chiqib, Matluba yangasiga dalda bergan, «nima xizmat bo'lsa, tortinmay aytavering. Akam qaytgunlaricha sizga ukaman», degan edi.

Matlubaning unga buyuradigan xizmati yo'q edi. Shu bois ko'chada ro'para kelganida salomlashardi-yu, ortiqcha gap aytmas edi. Shu sababli yangasining yo'qlovi Valijonni shoshirib qo'ydi. Tomorqadagi ishini yig'ishtirib, qo'l-betini chala-yarim yuvgach, xojasining uyiga shoshildi. Ichkari kirib hol-ahvol so'rashga ulgurmay, yangasidan kutilmagan savolni eshitib dovdirab qoldi.

— Akang boyliklarini qaerga yashirgan?

Bunday savolni tergovchi qayta-qayta so'ragan, har safar «bilmayman» degan javobni eshitavergach, axiyri tutaqib, rosa do'pposlagan edi. Endi esa, yangasi xuddi o'sha tergovchiga o'xshab so'rayapti. Yolg'on po'pisa qilyaptimikin desa, ohangi ancha jiddiy.

— Siz bilmasangiz... men bilmayman, opa.

— Sen go'rni ham bilasan, ayt.

— Axir opa, men oddiy bir shopur bo'lsam...

— Sen shopur emas, qo'shmachisan! Akangga qo'shib seni ham qo'shmazor qilish kerak edi.

— Unaga demang, opa, bolalarim bor.

— Senda bor bola, boshqalarda yo'qmi? Ma, o'qi! Ammo birovga g'ing deya ko'rma.

Matluba shunday deb xatni uzatdi. Valijon o'qib chiqqach, «men nima qilay?!» degan savol nazari bilan qaradi.

— Men har oyda pulni qaerdan olaman? Sen qo'shmachi hamma baloni bilasan. Akang topganining yuzdan birini uyga olib kelardi. Qolgani qaerda? Yo topasan, yo bolalaringni garovga qo'ydiraman. Qamoqdan bitta kallakesar kelgan. Unga seni ro'para qilamanu holingni ko'rib turaveraman.

— Xudo xayringizni bersin, jon opa! Unday qilmang, opajon! Menda nima gunoh? To'g'ri, maishatlarini bilardim. Ammo pulga ko'zim tushmagan sira. Aldayotgan bo'lsam — Xudo ursin! — Valijon shunday deb yig'lamsiray boshladi.

— Piqillama, erkak ham yig'laydimi? Menga anavi buzuqning qaerdaligini ayt hozir.

— Qaysi... buzuq?

— O'zingni go'likka solma! Juvonmarg Nafisani aytyapman!

— U shaharda yashaydi-da.

— Shahardaligini bilaman. Qaysi ko'chada, qaysi uyda? Tirik bo'lsa uyini ayt, o'lgan bo'lsa go'rini ayt.

— Ko'chasining nomini bilmayman, opa. Metroning oxiriga yetgandan keyin ozgina yurilsa mehmonxona keladi. Keyin o'ngga. To'rt qavatli imorat.

— Meni boshlab borasan o'sha ishratxonaga.

— Xo'p, opajon, ertaga, ishdan so'rab kelaman.

— Hozir jo'naymiz.

— Ie, axir...

— Senga «hozir jo'naymiz», dedim. Bor, chorak soatda tayyor bo'lib chiq.

Valijonni chaqirtirishidan asl maqsadi ham shu edi. «Akangning boyligi qaerda?» deb so'roqqa tutishi yigitni egib olish uchungina edi. Shunday qilmasa, u yo Nafisaning turar joyini yashirardi, yo olib borib ko'rsatishni paysalga solardi. Yoki «akasining sevimli yosh xotini» ogohlantirib qo'yishi ham mumkin edi. Shularni nazarda tutib, Matluba u bilan o'ziga xos bo'lmagan dag'al ohangda gaplashdi. Yangasidan bunday muomalani kutmagan Valijon chindan ham qo'rqdi. Ayniqsa, «bolalaringni garovga qo'ydiraman», degan gapiga ishonib, esi teskari bo'lib ketay dedi. Yig'isi ham yolg'on emas, rost edi. Bir tomonda qama-qama avjiga chiqqan, yana bir tomonda mashina o'g'irlash tish

kavagini kavlashday oson bo'lib qolgan, odamlar esa, to'ppa-to'satdan yo'qolayotgan zamonda oddiy po'pisa ham haqiqat ko'rinishini oladi. U xojasining ba'zi sirlarini biladi. Biroq pul bor-yo'qligi, yashirilgan-yashirilmaganidan bexabar edi. Bilganida hozirgi po'pisadan so'ng shart aytvorardi. To'g'ri, u kaltafahm emas, xojasining ayrim harakatlaridan bir narsani sezganday bo'lardi. Ayniqsa, qama-qamalar dovuli boshlangan, biroq, ularning viloyatlariga yetmay turiboq, xojasi g'imirlab qolgan edi. Uch-to'rt marta zargarlik do'konlariga kirib chiqqanida «o'y-nashlarga sovg'a-salom olyaptilar, akaginam», deb o'ylagan edi. Idorada o'tirgan «akaginasi»ning qo'llariga kishan solib olib chiqishgandan so'ng sovg'a-salom olinmagani, qog'oz pullar tillaga aylantirilganini anglab yetdi.

## KUNDOSHLAR

Dunyo ham ajoyibotlarga boy. «Yaxshi buzoq ikki onani emadi», deganlaridek, ayrim mamlakatlarning bir emas, ikkita rahbari bo'ladi. Birini «qonuniy prezident», deydilar. Halolmi, g'irrom yo'l bilan- mi — harholda saylanadi. Bu rahbarni yoqtirmaganlar o'zlarini «muxolifot», deb e'lon qiladilaru bironta xorij yurtga borib, o'zlariga yoqqan odamni «muvaqqat taxtga» o'tqazadilar. Bu endi «norasmiy prezident» bo'ladi. Bu holat kichikroq doiraga keltirilsa, ya'ni oila deb atalmish o'ziga xos «mamlakat»ga qiyoslansa, kundoshlarni eslatadi. Shunga ko'ra, Matluba «qonuniy prezident» deyilsa, Nafisani «norasmiy boshliq» deb atash mumkin bo'lar? Ba'zan xolis bir kuch ularni murosaga keltirishga urinadi. O'rtada taxt masalasi turganda ularning murosaga kelmoqlari it ila mushukning ittifoqini eslatadi, xalos.

Matluba bilan Nafisa orasida taxt muammosi yo'q. Biroq, orada taxtdan ham muhimroq masala, talashsa arzigulik narsa bor. Odamga nisbatan «narsa» so'zini ishlatish noo'rin, lekin ikki ayol — biri «qonuniy», ikkinchisi «norasmiy» xotin bir erkakni xuddi «narsa» kabi talashadilar. Agar xolis bir kuch — jallod o'rtaga chiqib, «unga ham bo'lmasin, senga ham bo'lmasin, kallasini uzib tashlay qolay», desa ikkala xotinning bu taklifga ko'nishi tayin. Er o'lsa-o'lib ketaversin, birovi egalik qilib olmasa, bas. Er birovning to'shagidan ko'ra lahadda yotsa ming karra a'lo! «Mayli, shu erim kundoshimga bo'la qolsin», deydigan xotin topilgudek bo'lsa, dunyodagi qahramon ayollardan biri bo'ladi. Shoirlar unga bag'ishlab qasidalar yozadilar. Bunaqa xotin shoir zotiga ham yoqadi-da...

Matluba «xolis kuch» — Valijon hamrohligida kundoshi bilan ittifoq tuzish uchun emas, yuzma-yuz «jang»ga kirish uchun borar edi. Viloyat markaziga yetganlarida boshkentga boruvchi so'nggi avtobus ham jo'nab ketgan ekan. Ortga qaytishni ma'qul ko'rmay, chiqim sal ko'proq bo'lsa ham, yo'lovchi mashinaga o'tirdilar. Yo'l-yo'lakay churq etmasdan ketdilar. Ikkovi ham gaplashadigan ahvolda emas edi. Matlubaning xayoli bo'lajak «olishuv» rejalarini bilan band edi. Valijon esa kutilmagan bu ofatdan qutulish choralarini izlardi.

Nafisaning uyiga yetib borishganda shahar qorong'ulik chodirida orom olishga hozir edi. To'rt qavatli bino yaqinida to'xtagan Valijon:

— Uxlab qolishmaganmikin? — deb Matlubaga yuzlandi.

— Uxlasa uxlar, o'lib qolishmagandir? — dedi Matluba zarda bilan.

Valijon «gapim yoqmadi shekilli», deb o'yladi. Aslida esa, Matluba bo'lajak uchrashuvni o'ylab, asabiylashib turgan edi. Valijon bu savoli bilan qizib, cho'qqa aylangan temir ustiga suv sachratgandek bo'ldi.

Eshikni Nafisaning eri Samandar ochdi. Matlubani ko'rib, avvaliga ajablendi. Bir necha soniyalik taradduddan so'ng esa, orziqib kutgan mehmoniga yetishgan baxtiyor mezbon qiyofasiga kirib, jilmaydi.

— O, Matlubaxonim! Salomlar, salomlarim bo'lsin! Qarang, niyatning xolisligini, bugun o'ylab turuvdim. Aslida bizlar odam emas, bemehr dinozavrlarmiz. Sizni bi-ir yo'qlab qo'yishga arzimadik. Lekin siz hamisha biz bilan birgasiz.

Matluba qoshu-kipriklarigacha malla bo'lgan Samandarning gaplariga e'tibor bermay, beliga bog'lab olgan guldor peshbandga ajablanib qarab oldi. Samandar bu qarashning ma'nosini anglab, xijolatlik bilan izoh berdi:

— Oshxonada... ozgina xizmat bor ekan.

— Xotiningiz... yo'qmi uyda? — dedi Matluba, ichkariga o'g'rincha nazar tashlab.

— Bor. Uyda... Ie, nega ostonada turibsizlar? Qani, Matlubaxonim, ichkariga marhamat, — Samandar shunday degach orqasiga chekinib, yo'l bo'shatdi-da, boshini burib, xotinini chaqirdi:

— Nafis, jonim, bu yoqqa qarang. Aziz mehmonlar kelishdi.

Matluba dahlizga o'tib, poyafzalini yechishga shoshilmadi. Dovdiragan Valijon esa, kirishni ham, orqasiga qaytib ketishni ham bilmay ostonaga ortida turaverdi. U vazifasini ado etib bo'lgan edi. Ammo «bolalarini garovga qo'yishga» qodir bu xotindan ijozatsiz keta olmasdi.

Erining hayajonli ovozini eshitgan Nafisa hayallamadi. Ichkari xonaga olib kiruvchi eshikni ochdi-yu, dahlizda turgan kundoshini ko'rib toshdek qotdi. Ular uydagi o'sha sharmandali to'qnashuvdan so'ng yuzma-yuz uchrashishmagan edi. Nafisa o'ynashi qamalganidan so'ng kundoshi bilan bu holda, o'z uyida uchrashishi mumkinligini o'ylab ham ko'rmagan edi. «Nimaga keldi ekan, bu xotin», degan savolga javob izlab, ostonada shumshayib turgan Valijonga qarab oldi. Valijon bu qarashning ma'nosini uqib «Xudo ursin, bilmayman», deganday yelka qisdi.

Matluba ularning bu ishoralarini sezib, kundoshidan ko'z uzmagan holda:

— Vali, sen ketaver, — dedi.

Bu ijozat Valijonning yuziga urilgan tarsakiday bo'ldi. Oh, shu paytda xojasining qadri o'tdi-ya! Xojasi bunaqa paytda hotamtoy bo'lib, ichkariga olib kirardi, qornini to'yg'izardi-da, «falon paytgacha bo'shsan», derdi. Ana shunda Valijon ham ayshini surib olardi. Xo'jayinning o'ynashiday bo'lmasa-da, unda ham o'ziga yarashuqli erkalaguvchilari bor edi... E, u dorulamon zamonlar beqaror shamoldayin o'tdi-yu ketdi. Endi xo'jayin qamoqda, u esa, ostonada egasiz qolgan itday shumshayib turibdi.

«Ketaver», deydi. «Bu begona shaharda qorong'uda qayga ham boradi», deymaydi» Valijon shu alamli fikr bilan burilganda «norasmiy yangasi» joniga aro kirdi:

— Valijon aka, kiring, ovqat tayyor-a...

— Vali, boraver, bolalaring kutib qoldi.

Avvalgisi taklif edi, bunisi esa buyruq. Buyruqdan esa qo'rqqulik. Valijon turgan yerida «norasmiy yangasi»ga yengil ta'zim qildi-da, orqasiga o'girildi.

— Valijon aka, kiring...

Kirish u yoqda tursin, endi to'xtasa, orqasiga o'girilsa, baloga qolishi tayin, shu sababli taklifni eshitmaganday zinapoya tomon shoshildi.

Samandar bularning kundosh ekanini bilsa-da, dardini ichiga yutib, o'zini go'yo hech nimadan xabari yo'q odamday ko'rsatishga intilardi. Oshnasining marhamat qilib, o'z o'ynashiga uylantirib qo'yganini to'ydan keyin fahmlagan, o'shanda Nafisani tashlab ketay ham degan, ammo «Endi menga kim ham tegardi», deb taqdirga tan bergan edi. Ayniqsa, bu uyning in'om etilishi uning ko'p muammolarini hal etgan edi. U ilmiy



safarlarda ko'p bo'lardi. Ba'zan ikki-uch haftalab qolib ketardi. Uyda yo'qligida oshnasining ser-qatnov bo'lishini sezib bir qaynardi-yu, so'ng sovurdi.

Hozir Matlubaning tashrifi zamirida noxushlik yotganini sezdi. Kundoshlarning bir-birlariga tikilib qolishganini vulqon arafasidagi sukunat deb bilib, portlash yuz bermasidan o'zini chetga olishni ma'qul ko'rди. Qaysi erkak ikki xotinning (ayniqsa kundoshlarning) orasiga tushib, baraka topibdi-ki, Samandar topsin? Bir kuni yuragi siqilib ketgan Nafisa «Siz ilmdan boshqa narsani ham bilasizmi?» deb zorlanganida Samandar «Men hayotni ham bilaman», deb javob qaytargan edi. Mana ayni damda o'zi bilgan hayot qoidasiga amal qilib, suzishmoqqa shaylanayotgan ikki kundoshdan nari bo'lishni istadi:

— Ha, Nafis, siz mehmonga qarang, men ishlarimni tugata qolay, — deb oshxonaga kirdi.

Shu onda Nafisaning ortida otasi ko'rindi. Mana shunisi Matluba uchun kutilmagan, ayni choqda noxush hol bo'ldi. Asli ismi Toshbolta bo'lgan bu odam sov-xoz direktoriga oshpazlik qilgani uchun ko'pchilik uni «Oshbolta» der edi. Matluba esa «fohishaxona iti» deb undan nafratlanardi. Ayniqsa, qizining nomusini ham xojasiga in'om etgach, Matluba u bilan salomlashmay ham qo'ygan edi.

— Ha, kim kelibdi? — dedi Toshbolta mensimagan bir ohang bilan. So'ng esa piching qildi: — Ie, aziz mehmonmi? Ha, keling, kelin poshsha?

Uning «ha, keling...» degani zamirida «Nega kelding, ket!» degan ma'noni o'qib, Matluba ichida «Turqing qursin sening!» deb qarg'adi.

— Ha, gapir, ish-pish bilan keldingmi yo eringni qidirib keldingmi? Ering yo'q bu yerda. U hov... Sibirda ayshini surib yurgandir.

— Dada! — Nafisa shunday deb otasiga o'girildi.

— Nima «dada!» — deb o'shqirdi Toshbolta. — Nima bor unga bu uyda? Gaplashib o'zingni pastga urma. Uyga ham qo'yma. Bu uy eridan qolgan matoh emas.

Matluba bu uy ostonasini bosib o'tishi bilan «hujum»ga tashlanishni reja qilib, aytadigan gaplarini yo'l-yo'lakay pishitib olgan edi. Matlubaning xom xayoli bo'yicha eshikni «itdan tarqagan Nafisa» ochardiyu uni ko'rib qo'rqib ketardi, orqasiga tisarilib, titray boshlardi... Ana shunda Matluba hujumga o'tardi. Yulmas edi-yu, ammo undan battar qilardi... o'ylaganlari amalga oshmadi. Ustiga ustak «fohishaxona iti» vovullab turibdi.

— Erimning... — Matluba «erimning» degan so'zga urg'u bermoqchi edi, ammo ovozi titrab chiqib so'zini yamlab yubordi. Ovozi titragani uchun o'zidan o'zi naf-ratlandi. «Bu maxluqlar oldida past ketishim mutlaqo mumkinmas», deb o'ziga dalda berdi. bir necha nafas sukut qilib, so'ng gapini qaytadan boshladi: — Erimning Sibirda ekanliklarini yaxshi bilaman. Lekin bu yerga itlarini bog'lab ketganlarini bilmapman.

— Nima deding, voy enag'ar!

— Dada! — Nafisa otasining ko'krigidan yengil itardi, — Dada, ichkari kiring, aralashmang.

— Sen!.. — Toshbolta unga ham ikki og'iz «shirin» gaplaridan aytmoqchi edi, qizining ko'zlariga ko'zi tushib, shashtidan qaytdi.

— Bu safar siz «xo'p» deng...

— Yaxshi, omma, gapni kalta qil. Sen uning erini bilmaysan, tanimaysan... Hech qanaqa qog'oziga qo'l qo'yma, — shunday deb iziga qaytgach, Nafisa eshikni yopdi.

Matluba o'sha sharmandali kunda, g'azab olovida yonayotgan damda unga tuzukroq qaramagan ham edi. Hozir o'g'rincha emas, dabdurustdan tikilib qaradi. Xushbichim, xushro'y ekanini tan olgisi kelmadi. «Erim bekorga ilakishmagan ekan, menga

«yoshingga yarashadigan qiliq qil», deb bejiz aytmagan ekan. Bu ishva qilib turganda men yoqarmidim», degan fikrni xayolidan quvdi.

Nafisa «mayli, to'rganicha qarab olsin», deb indamadi. Oxiri sabri chidamadi:

— Keling, opa...

— Opa? — Matluba zaharli iljaydi. — Men qachondan beri senga opa bo'lib qoldim? Men sendaqa singilni bilasanmi, nima qilaman?

Nafisa qaydan bilsin buni. To'g'risi aytilsa, Matlubaning o'zi ham bilmaydi. Hozir Nafisa «xo'sh, nima qilardingiz?» deb so'rsa dovdirashi tayin edi.

— Singlingiz emasman. Yoshingizni hurmat qilib aytuvdim. Boshqa demayman. Menga bir nima demoqchimisiz?

— «Bir nima demoqchimisiz?..» — Matluba kundoshiga o'tli nigohini qadadi. — Sen menga qaysi xushtoringni yubording?

— Nima deyapsiz? — Nafisa ajablanib, kaftini yuziga bosdi.

— Erimni kanadek so'rganlaring yetmaganday endi menga yopishmoqchimisiz?

— Tushunmayapman, nimaga unaqa deyapsiz?

— Sen o'zingni merovlikka solma. Bilib qo'y, o'sha xushtoringni ham, o'zingni ham o'ldirtirib yuboraman!

Bu gapdan keyin oshxona eshigi qiya ochilib, Samandarning boshi ko'rindi:

— Qizlar, nima gap, tinchlikmi?

— Eshikni yoping! — dedi Nafisa zarda bilan. Amri shu zahoti bajarilgach, Matlubaga qaradi. Endi uning ko'zlarida ham g'azab uchqunlari ko'rindi. — Qo'lingizdan kelsa o'ldiring, lekin menga tuhmat qilmang.

— Tuhmatmi? Mana bu ham tuhmatmi? — Matluba shunday deb sumkachasidan xatni chiqarib uzatdi. Nafisa xatni o'qiyotganida undan ko'zini uzmadi.

— Bu... Tursunali akamning xatlari-ku? — dedi Nafisa ajablanib. — Sizga kim berdi?

— Xushtoring.

— Tuhmat qilmang, dedim sizga! Xudo ursin, bu xatni endi ko'rib turibman.

Matluba «rost aytyaptimi yo tonyaptimi?» degan fikrda unga tikilib qoldi. Mo'ljalidagi «hujum» kuchi zaif bo'ldi. Natijasi esa, undanda zaif bo'ladiganga o'xshab turibdi.

Nafisa o'ylab bir to'xtamga kelishi uchun kundoshiga sharoit yaratib berdi. Ichkaridan esa Toshbolta yolg'on yo'tali bilan qizini shoshirdi. «Dadam ham ba'zida oshirib yuboradilar-da», deb g'ijindi Nafisa, Matluba ham yo'talning ma'nisini tushundi. «He, o'pkaginganga qurt tushsin, iloyim, shu yo'tal olib ket-sin-a...» deb qarg'adi.

— Agar ishonmasangiz, — dedi Nafisa kundoshiga tik qarab, — turmaga borib kelamiz. O'zlaridan so'raymiz.

— Nima? — Matluba bunaqangi taklifni sira kutmagan edi.

— Sibirga birga borib kelamiz! — Nafisa shunday deb taklifiga aniqlik kiritgach oshxona eshigini ochdi. — Samandar aka, Irkutskka ikkita bilet olib kelasiz.

— Hozirmi? — dedi Samandar ajablanib.

— Ertaga... ertalab. Borish-kelishga olasiz. U yoqda sarson bo'lib yurmaylik.

— To'xta, — dedi Matluba. — Senga «Sibirga boraman» dedimmi? Menga qara, sen erimning Irkutskda ekanini qaerdan bilasan? — Matluba savolni Nafisaga berib, «ko'rib qo'y, xotiningni» deganday Samandarga qaradi.

Nafisani bu savol dovdiratmadi:

— Odamlardan eshitdim, — dedi xotirjam ravishda.

— Odamlar qaerdan eshitishibdi? Riodan aytibdimi? Yo gazetda chiqibdimi?

— Endi maydalashmay qo'yaqoling. Avval manavini hal etaylik, — Nafisa shunday deb xatni eriga uzatdi. — O'qing, o'rtog'ingizdan.

Samandar xatni o'qib, boshini qashidi. Malla kipriklari piriqiradi.

— Matlubaxonim... Men bilmadim-u, ammo Nafisdan bekor gumonsirayapsiz. Xohlasangiz Tursunalining oldiga o'zim borib kelaman. Agar yanglishmasam, bu xatni o'z xohishi bilan yozmagan. Aniqlash kerak. Turmalarda har xil voqealar bo'lib turadi.

— Aniqladingiz nimayu aniqlamadingiz nima?

— Qanchadan to'lash kerak ekan?

Matluba aytdi.

— Har oydami? — dedi Samandar ajablanib. — Bu butun bir kapital-ku? Bilasizmi, Matlubaxonim, bunday qilamiz: birinchi vzosni biz beramiz.

— Yo'q!

— Rad etishga shoshilmang. Axir Tursunali menga begona emas. Biz aka-ukadaymiz, axir.

«Aka-ukadaymisan, yo kundoshmisan?» deb o'yladi Matluba. Bu yerda ortiq to'xtagisi kelmadi. Bularga uchrashgani uchun o'zidan o'zi nafratlandi. Xuddi tilanib kelganday his qilib, o'zini o'zi yulib tashlashni istadi. Shart burilib, eshik tutqichiga qo'l yuborganida Samandar uni yelkasidan ushlab to'xtatdi.

— Bunday qilishga haqqingiz yo'q. Menda pul bor. Bu yil baribir kurortga bormaymiz. Ishdan menga ijozat yo'q. Undan tashqari biz puldan sira qiynalmaymiz. Do'stim uchun men ham nimadir qilishim kerak.

— Siz do'stingiz uchun juda ko'p ish qilib qo'ygansiz, xayr, — dedi Matluba eshikni ochib. So'ng ostonaga hatlab, orqasiga o'girildi: — Bilib qo'ying: men tilanchi emasman. Erimni ham, nomusimni ham o'zim himoya qila olaman.

Matluba shunday deb eshikni yopdi-da, tez-tez yurib zinapoyadan tusha boshladi. Samandar ham, Nafisa ham uning ortidan yurmadilar. Samandar «Erini himoya qilishi tushunarli, ammo nomusni nima uchun aralashtiradi?» degan xayol bilan xotiniga qaradi. Nomus masalasi bekorga eslanmaganini tushungan Nafisa eridan ko'zini olib qochib, «yo'tali bosilib qolgan» otasi huzuriga yurdi.

## O'LIMNING BAHOSI

Matluba zinapoyalardan tushib, tashqariga chiqqunicha xuddi najasxonadan o'tayotgandek nafasi qaytdi. To so'nggi zinapoyani bosgunicha har tashlagan qadamida o'zini la'natladi. Dastlabki soniyalarda bu yerga kelib xato qilganini anglab, pushaymon edi. Uning o'ziga bo'lgan nafrati bu pushaymondan tug'ilmadi. Ko'ngilga taskin bera olguvchi «olishuv» bo'lmagani, ulardan baland kelish u yoqda tursin, hatto teppa-teng gaplashishga jur'ati yetmagani, eng muhimi — bu xonadondan besamar ketayotgani uning g'azabini qo'zg'otgan edi. Ba'zan odam achchiqlansa g'azab toshlarini birovga otib humoridan chiqadi. Hozirgi holatda esa, Matluba g'azab toshlarini faqat o'zigagina ota olardi.

Alhol, Matlubani dardga solgan yana bir sabab bor: Matluba kundoshining yayrab-yashayotganini anglab, avval ichi kuydi, so'ng rashk qildi. Yo'q, eriga nisbatan emas, o'sha qoshu kipriklarigacha malla Samandarga rashk qildi. Eri do'stini «zo'r olim, faqat Maskov bilan gaplashadi», — degan edi. Ana shunday zo'r odamni bir buzuqning quliga aylanishiga Matluba toqat qila olmadi. «Bu itdan tarqagan g'ariko'zga er hayf. Nima qilib bo'lsa ham ajratib yuboraman. Yursin menga o'xshab beva bo'lib...» Matluba xayolidan yarq etib o'tgan bu fikrni chuqurlashtirmadi. Hatto qanday qilib ajratib yuborishini o'ylamadi ham. Buni keyinroq mulohaza qiladi. «Samandarga borib hammasini aytaman. Qiz olmaganini bilib qo'ysin...» deb qaror qiladi-yu, ammo ahdini amalga oshirishni galga solaveradi. Bu galga solishi ham besabab emas. Avvaliga ajratib yuborishni

o'ylagan bo'lsa, keyinchalik «Juvonmarg Nafisa bu dunyoda yashamasligi kerak», degan fikrga ko'proq yopishib oladi.

Bu o'y-qarorlar keyinroq tug'iladi. Hozir esa...

Matluba besh-o'n qadam yurgach, bolalar o'ynaydigan maydoncha qarshisida to'xtadi. «Tepadan kuzatishayotgandir», degan fikrda o'girilib, ularning derazalariga qaradi. O'nlab derazalardan qaysi biri ularniki ekanini aniq bilmadi. Uning mo'ljalidagi bironta deraza ortida ham sharpa sezilmadi. «Er jonivor idish-tovoq yuvayotgandir. Anavi buzuq esa, otasiga hisob berayotgandir. Hamma gaplarni eshitib turdi u it! Yana yo'taladi-ya! He, o'pkalaring irib ketsin sening!» Matluba noaniq derazaga shu qarg'ish toshini otgach, sal hovuri bosilganday bo'ldi.

Nimqorong'i muyulishda to'xtab turgan odamning o'zi tomon yura boshlaganini ko'rib, cho'chidi. Yuragiga qo'rquv oralab, tislangan mahalida tanish ovozni eshitdi:

— Opa, bu menman.

— Vali? nima qilib turuvding?

— Kechqurun yolg'iz yurmang, dedim. Harholda bu yerda yotib qolmasangiz kerak, deb o'yladim.

Matlubaga Valijonning bu ishi ma'qul bo'ldi. Ammo sir boy bermaslik uchun:

— Meni bo'ri yermidi? — deb to'ng'illab qo'ydi.

Katta ko'chaga chiqishganda Valijon:

— Opa, men bir moshin to'xtatayin. Adangiznikiga borasizmi? — deb so'radi.

— Yo'q, — dedi Matluba, — ukamnikiga boraman. Sen ham yura qol, joyi bemaolol.

— Rahmat, opa, mening boradig'on yerim bor.

Matluba «boradigan yeri bo'lmagani uchun meni poylab turgandir», deb o'ylagan edi. Valijonning bu gapidan so'ng o'sha fikri uchun o'zi uyaldi.

— Yuraver, seni tanishadi, — dedi muloyimlik bilan.

— Yo'q, opa, bahonai sabab bilan qarindoshlarni ko'rib ketayin. Yana qachon tushaman bu shaharga...

Valijon Matlubani mashinada kuzatgach, o'zi temir yo'l bekatiga ketdi. U Matlubaga yolg'on so'zladi: shaharda uning qarindoshlari yo'q edi. Xojasining davrida orttirgan o'ynashlarinikiga borishning ma'nosi yo'q. U xotinlar «Valijon akaginam qachon bag'rimga kelarkinlar?» deb ko'z tikib o'tirmaydi. Allaqachon boshqa xushtorlar topib, maishatlarini davom ettirayotganlari aniq.

Valijon yomon bir o'yinga beixtiyor aralashib qolayotganidan ko'ngli xijil bo'lib, turli o'ylar changalida tong ottirdi. Yaxshi kunlari tugab, tashvishli davri yaqinlashganidan darak beruvchi bu shahardan tezroq qochgisi keldi. Tongda birinchi avtobusga o'tirib uyiga jo'nadi. Halqa yo'ldan uzilgach, xuddi tashvishlari ortda qolganday sal yengil tortdi.

Matluba esa, mashinadan tushgach, ukasi yashaydigan hovli darvozasiga yaqinlashdi-yu, ammo qo'ng'iroq tugmasini bosishga shoshilmadi. Hozir u hech kim bilan ko'rishishni, gaplashishni istamayotgan edi. To'g'ri, ukasi uni ko'rib, «nega bemahalda kelding?» demaydi. Bil'aks, quvonadi. oralaridagi farq bir yosh bo'lgani sababli ular Fotima-Husan kabi yaqin, aytish mumkinki, ma'lum ma'noda hatto sirdosh ham edilar. Yoshdagi farq oz bo'lgani sababli ukasi uni «opa» ham demasdi, sizlamasdi ham. Matluba erga tekkanidan so'ng «opa» deb sizlay boshladi. Bu Matlubaga ham erish tuyuldi. Ukasi bilan uzoqlashib ketganday bo'ldi. Ukasiga ham shunday tuyulib, yana eski odatiga qaytdi.

Erga tekkanidan so'ng ota-ona huzuriga kelib-ketish uning uchun o'lim chig'irig'idan o'tish kabi azob edi. Otasi Matlubani e'tiborli bir odamning o'g'liga berishni mo'ljal qilib qo'ygan ekan. Mo'ljalning o'zigina bo'lsa koshki edi. Do'sti vakilligida go'zal, oqila qizi

borligini ma'lum qilibdi. U odam esa, qadrdonlaridan birida o'g'liga mos qiz borligidan «xabar topib», sovchi ham yuborgan edi. Balo buluti yopirilib, balo yomg'irlari ana o'shandan so'ng yog'a boshladi. Otasiga qo'shib onasi avval yalindi, so'ng po'pisa qildi. Po'pisa qilishda akasi hammadan oshib tushdi, gapira turib, bir-ikki marta do'pposlashdan ham qayt-madi. Onasi so'nggi chora — ko'z yoshlarini ishga solganida Matluba chiday olmadi. Onasiga qo'shib yig'lab turib, bir yigitni «juda yaxshi ko'rishini» aytdi. «Bo'lmagan gap, — dedi onasi, — yaxshi ko'rganingni erga tekkaningdan keyin unutib yuborasan». «Unutolmayman, oyijon», dedi yig'idan to'xtamay Matluba. «Agar o'sha yaxshi ko'rganingga tegaman, desang mening o'ligimni hatlab o'tib chiqasan bu uydandan», dedi onasi qat'iy tarzda. «Oyijon, sizning bir tomchi ko'z yoshingiz uchun undan kechsam kechvorar edim, lekin... to'ying ertasiga kuyov tomon meni izimga qaytarib yuborsa isnodga chiday olmaysizlar...» Onasi beixtiyor «nega?» deb so'radi-yu, nima voqea sodir bo'lganini anglab, labini tishladi, yuzini yuldi.

Matluba to'g'ri aytgandi — isnodga chiday olishmas edi. Bo'lib o'tgan sharmandali voqeadan xabar topishgach, dardlarini ichlariga yutmoqdan o'zga chora bo'lmadi. Agar bu uyatdan odamlar xabar topishsami?! Xudo ko'rsatmasin!

Matluba xohlagani — Tursunaliga tegdi. Unga dabdabali to'y nasib etmadi. U alamli, azobli hayotni o'ziga ravo ko'rdi. Otasi esa, «oziq-ovqat savdosi bosh-qarma»siga rahbarlik qilish niyatiga yetolmadi. Sir uch kishining orasida qoldi. Matlubaning akasi, ukasi uning Tursunaliga tegishini o'jarligidan, deb baholadilar. Otasi Matlubani rasman oq qilmagan bo'lsa-da, gaplashmay qo'ydi. Salomlariga ham alik olmadi. Faqat tilsiz, harakatsiz qolganidan keyin qiziga qarab bir nimalar demoqchi bo'lib g'o'dranardi, ko'zlari yoshlanardi.

Otasini isnod emas, pul g'ami yiqitdi. Ulardan ikki uy narida qimorboz qo'shnilari bo'lardi. Bir kuni chiqib «Qimorni tashlamoqchimman. Ammo bu shaharda yashab turib tashlay olmayman. Samarqanddan joy topdim. Ota yurtimga jo'nayman, joy begona bo'lmasin. Siz bizga ko'p yaxshilik qilgansiz. Uyimni sotib oling, sizga arzonroq qilib beraman», debdi. Otasi ham qiziq, uyga muhtojligi yo'q edi. Katta o'g'li o'zi bilan qolib, kichigi joy qilib chiqib ketgan edi. Lekin nafs qurg'ur «arzonroq olu u yer bu yerini tuzatib, ikki baravar ortiqqa pulla», deb qutqu qilaverganmi, harholda mahalladan uch-to'rt odam chaqirildi, savdo pishdi. Pul to'landi. Qo'shni ikki oydan so'ng ko'chishga ijozat so'radi. Oradan ikki oy emas, yarim yil o'tsa ham u joyidan jilmadi. Sakkiz oydan so'ng ko'chishi lozimligi eslatilganda u «nega ko'chaman?» deb «ajablandi». Uyni sotganini aytishganda esa, «Qachon sotibman? Shunday uyni nimaga sotaman?» deb yana «ajablandi». Guvohlar chaqirildi. Biri «eslay olmadi», boshqasi «bunaqa gap bo'lmagani»ni aytdi. Guvohlar chiqib ketishgach, otasi yiqildi, tilsiz, harakatsiz bo'lib qoldi. Oradan uch oy o'tar-o'tmas, onasi uyqusidan uyg'onmadi. Mo'mina ayol edi, omonatini ham osongina topshirdi.

Onalar hech mahal farzandlaridan norozi bo'lib ketmaydilar. Shunday bo'lsa ham Matluba «onamdan rozilik ololmadim», deb armonda qoldi.

Onasi o'tganidan beri ota uyiga borgisi kelmaydi. Akasi bilan yangasini ko'rishga tobu toqati yo'q. Akasini o'sha urganlari uchun sira-sira kechirolmaydi. Hatto onasini behurmat qilganida ham xotinini chertmaydigan insonning singlisini do'pposlashi chindan ham kechirish mumkin bo'lgan hol emasdi.

Janozadan keyin qaysi bir kuni ukasi yolg'on yig'isini avjga chiqarayotgan yangasiga qarab turib, «onam boyaqish o'ldilaru bu dunyodagi do'zax azobidan qutuldilar», degan edi. Yomon kelindan Yaratganning o'zi asramasa qiyin ekan. Qayin singillar turmushga chiqib ketishar, qayin inilar ko'chib ketishar, ota bilan ona esa, bu dunyo azobiga dosh berib, yashashdan o'zga choralari yo'q. Ularni bu azobdan faqat o'lingina qutqaradi.

Matluba shaharga tushganida «otamnikiga boraymi yo ukamnikigami?» deb ikkilanib o'tirmas edi. To'g'ri, otasini borib ko'rardi, ammo u yerda uzoq o'tirmas edi. Yangasining «qiz degan otaga qarab o'tirishi kerak», degan fasod gaplariga javob bermay iziga qaytardi. Erining ishi sudda ko'rilayotganda bolalarini olib ukasinikiga ko'chib keldi, deyilsa ham bo'ladi.

Matluba ukasining darvozasi qarshisida turib, yuragi uvishib ketdi. Bir qarasang atrofingda mehribon odamlar ko'p. Ular senga yaxshilik qilgisi keladi-yu, ammo nima uchundir qilmaydi. Dardingga mal-ham qo'ygisi keladi-yu, ammo nimagadir qo'ymaydi. Senga qo'shilib yig'lagisi keladi-yu, ammo nimagadir yig'lamaydi. Boshing uzra baxt quyoshi charaqlab qolsa, uning nuridan sen bilan birga bahra olishga shoshilishadi. Bu baxt quyoshi yuzini abri balo qoplaguday bo'lsa, pana-panaga qochadilar. O'sha panada turib, senga bo'lgan sadoqatlarini izhor etadilar. Matluba eri qamalgunicha buni bilmas edi. Balo buluti hamma yoqni zulmatga o'ragani bilan hayotni yaxshi-yomonga ajratib, odamning g'aflat uyqusidagi ko'zini ochar ekan.

Shaharda qarindoshlari ko'p, tanishlari undan-da ko'p. Ammo ularga baxti kulgan Matluba kerak. Bir olam dard iskanjasidagi baxti qaro Matlubani ular boshlariga uradilarmi? Ularni ham ayblash qiyin, chunki dard masalasida ularning boshqalardan kam yeri yo'q. Matluba qaysi birlarinikiga hasratdosh izlab borsin? Ukasi... mehribon, ammo Matluba ayrim masalalarda unga yorila olmaydi.

To'g'ri, shaharda bittasi bor... Lekin u ham hasratdosh emas. Ammo agar gapi rost bo'lsa, Matluba uchun jonini berishga tayyor odam. Dorulfununga qabul imtihonlari paytida ishq tushib, to Matluba erga tekkinicha tinch qo'ymadi. Ismi Ramziddin bo'lgan bu yigitni oshiqligi sababli hamkurslar Romeo deb kulishardi. Bu ism uning o'ziga ham yoqib, Matlubani bir-ikki «Juletta» deganida eshitadigan «shirin» gaplarini eshitib olgan edi. Bu Romeo tushmagur mulohaza, odob, muomala ko'chalaridan o'tmagan soddagina yigit edi. Matlubaga bo'lgan muhabbatini hech kimdan yashirmas, muhabbat yashirin tuyg'ular mevasi ekaniga fahmi yetmas edi. May bayramida namoyishga ketishayotganda, Qizil maydonga yetmay, ancha vaqt to'xtab qolishdi. Shunda bu Romeo tushmagur dabdurustdan «shu yil imtihonlardan so'ng uyingga sovchi yuboraman, yo'q desang uvolimga qolasan», dedi. Matlubaning qitmirligi tutib, «chindan yaxshi ko'rasizmi?» deb kuldi. Unga dugonasi qo'shilib «yaxshi ko'rsangiz hozir hammaning oldida isbot qiling», dedi. «Qanday isbot qilishim kerak?» dedi Romeo ajablanib. «Matlubaning qarshisida hoziroq tiz cho'qing!» dedi dugonasi shaddodlik bilan. «Tiz cho'kaymi?» deb so'radi Romeo Matlubadan «yo'q» degan javobni kutib. «Nega Matlubadan so'raysiz. Yaxshi ko'rsangiz tiz cho'king darrov! Amerikaliklar shunday qilisharkan. Zamonaviy yigitlar Amerikaga ergashishlari kerak», dedi dugonasi bo'sh kelmay. Romeo yana Matlubaga qaradi. Najot bo'lmagach, cho'ntagidan tanga pullarini olib qizning oyoqlari ostiga sochdi-da, ularni terib olish bahonasida tiz cho'kdi. Uning bu topqirligidan qoyil qolgan qizlar ko'chani boshlariga ko'tarib, sharaqlab kulib yuborishdi. «Matlu, shundan boshqaga tegsang xor bo'lasan», deb hazillashishdi. O'shanda farishtalar «omin» degan ekanmi, boshqaga tegdiyu xor bo'ldi...

O'sha kezlari esa, Matlubaning ko'z oldidan Tursunali ketmas edi. Boshqa barcha yigitlar uning uchun arzimas bir odamchalar edi.

Romeo bilan turli tasodif tufayli keyin ham uchrashdilar. Har gal uchrashishganda u uylanmaganini, Matlubaning erdan chiqishini kutayotganini aytardi. «Sovuq nafas qilma, nega erdan chiqarkanman?» derdi Matluba. «Sen u bilan baxtli bo'lolmaysan. Yo ajralishasan, yo siqilib o'lib ketasan. Boshqa yo'l yo'q senga. Mening ham bitta yo'lim bor — seni kutaman. Qariganingda bo'lsa ham senga uylanaman. Uylanmagunimcha o'lmayman», derdi u.